

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 26-avgust chorshanba №34(9619)

**MUSTAQILLIGIMIZNING
35 YILLIGI
QUTLUG'
BO'LSIN!**



O'ZBEKISTON

Chayqalib yotibdi nurli bir chaman,
Oy bilan oftobning buyuk vatani.
Tong kabi jilmayib baxti ochilgan,
Maysaga ko'milib nurli badani.

Osmon posbonidir bunda burgutlar,
Chumchuq chug'uridan teshiladi tom.
Bu o'lka ko'ksida yonar bulutlar,
Chinor shoxlariga qo'nganida shom.

Ne-ne daryolar bor, yugurib-yelib,
Ummonda qolarlar bir umr yaxlab.
Bu chaman bag'riga daryolar kelib,
Zaminga singarlar, g'o'zaday shoxlab.

Ko'zyoshdek tiniqdir bu elda osmon,
Shaftoli shoxlari qayrilgan onda.
Naqsh olma yuziga yugurganda qon,
Oftob ham osilib, tolar armonda.

Bu elning qadimiy har qo'shig'ida,
Bejiz oltin deya atalmas tuproq.
Simyog'ochga qo'ngan qush tumshug'ida,
Tilladay nurlanib turibdi boshqoq.

Chayqalib yotibdi nurli bir chaman,
Yulduzday sochilib olamga shoni.
Fidoyi o'g'ilman, yonib o'paman
Olam ostonasi – O'zbekistonni.

Tilak JO'RA



Iftixor



Biz kabi dunyoning doimiy qiziqish markazida yashab kelayotgan xalqning hayoti turli sinovlar aro kechadi. Uzoq asrlarni qo'ya turaylik, mana shu keyingi ikki yuz yilda millatimiz boshidan nimalar kechmadi: qullik, qaramlik, kimlarningdir ko'ziga, so'ziga termulib, sarg'ayib yashash, ocharchilik, qahatchilik... Urushlar, judoliklar, tuhmatlar, kamsitilishlar... Ammo shu iztiroblar so'ngida tole bizning taqdirimizga Ozodlik atalmish buyuk ne'matni ham bitdiki, buning quvonchi o'tmishimizda kechirgan mashaqqatlarimizni yuvib yubordi, desak ham xato gapirmagan bo'lamiz. Lekin inson xotirasiga shunday kunlar o'rnanib qoladiki, vaqti-vaqti bilan, ayniqsa, sarhisob chog'larida, bugungi shodliklar orasida ham qalqib chiqaveradi.



Munavvara USMONOVA,
shoira

Bolaligimni eslasam, qalbmimdagi barcha beg'ubor hissiyotlar orasida sog'inch tuyg'usi kuchliroq bo'lgan ekan. Maktabimni, darslarimni xud-di uzoqlarda qolgan yaqinlarimni qo'msagandek, ichkin bir intiqlik bilan sog'inar ekanman. Kuz avvalidayoq bizni darsxonalarimizga qo'ng'iroq ovozi chorlamas, dalalarga safarbarlik e'lon qiluvchi hukmfarmo ovozlari o'sha bizga qadrdon qo'ng'iroq jarangini so'ndirib yuborardi. Chunki yozgi ta'tildan, uy va tomorqa tashvishlaridan qutulib, havas va umid bilan qo'limizga olgan kitoblarimizni ham "paxtakor" degan hammaga baravar yopishtirilgan nom yulib olar, o'rniga etak tutqazar edi.

Bahorda qatqaloq bo'lgan g'o'zaning bo'g'zini yumshatish uchun ham biz – o'quvchilar balogardon edik. Yomg'ir yog'sa, boladek quvonib quvalashib yurmasdik. Chunki yerdan nam ketishi bilan navbat bizga kelishini bilardik. Hali dala ichiga kirmayoq cho'kka tushishimizni, tizzalarimizdagi og'riq va uvishishni his qilardik. Ko'nglimizdagi g'ashlik ortiqcha quvonishga yo'l bermasdi. Qatqaloq ham bir navi edi, paxta terimi esa naq to'rt oy davom etardi. To'rt oy... Aytishga oson, xolos. Biz kunma-kun hisoblaganda yuz yigirma ikki kun sinfxona yuzini ko'rmasdik. Daftarlari yopilardi, kitoblar tokchada chang bosib yotardi. Sinfxonalarning g'uborlangan dera-zalari bizga intiq va mung'aygancha qarab turardi. Umrimizning qaytmas fasli – bolalik esa bir joyda to'xtab kutib turmasdi. U ham o'tayotgan yillarga qo'shilib ketib borardi. Qish izg'irinida barmoqlari sovuqdan chat-

nab, muzlagan ko'saklarni terib yurgan bola uchun eng katta orzu yangi kiyim ham, o'yinchoq ham emasdi. Bolalarning nafasidan hovurlangan maktab bag'riga qaytish edi. Hozir ham dilimning tub-tubida og'riqlari saqlangan o'sha kunlar haqida yozar ekanman, aziz ustozlarimning ko'zlari yodimga tushadi. Ular ham bizni dalaga chiqarib, issiq xonalarda o'tirishmasdi. Paykalma-paykal yurib, yonimizda, izimizda izg'ishga majbur edilar. Bizga, bolaligimizga xo'ja bo'lganlar, muallimlarimizga ham xo'jayinlik qilishardi. Matematikadan chala ishlangan misol yoki masala uchun emas, chanoqda qolgan paxtalar uchun koyishardi. Tuzum qarshisida, davr qarshisida ojizligini bilib turgan, bo'g'ziga kelgan isyonga ovoz bera olmay bo'g'ilgan o'qituvchi uchun bundan azobliroq iztirob bo'lmagan bo'lsa kerak. O'sha yillar mening bola tafakkurimga bir haqiqatni o'yib yozdi: maktab qadrini uning quchog'ida yurgan bola emas, undan mahrum qilingan bola yaxshi bilar ekan. Bugun o'ttiz besh yilligini nishonlayotgan istiqlol o'sha paxtazor changiga qo'shilib ketgan bolaligimiz haqidagi xotiralarni tom ma'noda o'tmishga aylantirdi. Istiqlol degan so'zning mohiyatini men qanday anglayman? U, eng avvalo, men uchun maktab qo'ng'irog'ining o'z vaqtida, bevaqt tanaffuslarsiz jaranglashi... Tafakkurimizni uyg'otuvchi saboqlarning o'z vaqtida boshlanishi... Yelkalarimizga o'quvchilik sumkalari, qo'limizga kitoblarning qaytishi demakdir. Men bugungi hayotga, bugungi ma'rifatga ana shu quvonchlar darchasidan qarayman. Zamonaviy maktablarga kirsam, yorug' sinfxonalarni, interaktiv doskalarni, laboratoriyalarni, robototexnika xonalarini ko'rib ko'nglim yuksaladi. Ixtiyor o'zimizga berilganining, ko'p yaxshiliklarga qodir ekanimizga bo'lgan ishonchning mevasi bu o'zgarishlar, deymen va shunday kunlarni ko'rayotganim uchun shukrona keltiraman. Endi ko'z oldimda ikki manzara yonma-yon turadi. Biri – qor bosgan dalada muzlagan ko'sakni olish uchun tirnoqlari qonagan bola. Ikkinchisi – ilmga tashna, baxtiyor bolalar bilan to'lgan sinfxona. Mana shu ikki manzara orasida butun bir mamlakatning o'ttiz besh yillik ta'lim tarixi mujassam.

Istiqlolning dastlabki yillarida mamlakatimiz oldida: "Endi qanday

Tafakkurga

yashaymiz?" degan zalvorli savol ko'ndalang turardi. Bu savol ozod yashashni ixtiyor qilgan insonlarga tegishli barcha sohalar kabi ta'limga ham daxldor edi. Yo'limizdagi to'siqlarni yengib borar ekanmiz, bir haqiqatni angladik: har qanday taraqqiyot olamining eshigi maktab va darsxona kaliti bilan ochilar ekan. Shuning uchun ham islohotlar, avvalo, ta'limdan boshlandi. O'zgarishlar oson kechmadi, bugun ham oson kechayotgani yo'q. Nomaqbul deganimiz bilan hur mamlakatning hur bolalari uchun mutlaqo yaroqsiz tizimni bir kun, bir oy, hatto bir yil ichida butunlay yangilab bo'lmadi. Issiqlik tizimi ishdan chiqqan, pollari chirib ketgan, ta'mirtalab maktablar, sho'ro tuzumini targ'ib qiluvchi, buyuk o'tmishimizga qora chiziq tortadigan darsliklar butunlay yangilanishi zarur edi. O'qituvchining ham, o'quvchining ham maqsadi, intilishi o'zgarishi shart edi. O'zgarish asta-sekin boshlandi. Chunki eng qiyin ish – fikrni o'zgartirish. Ko'nikmalarga o'rganib qolgan tafakkurni yangilash vaqt ham, mablag' ham, sabr ham talab qiladi. Hayot o'zgarib, ta'limga islohotlar kirib kela boshlagani sayin odamlarning ta'lim haqidagi tasavvuri ham o'zgardi. Bir paytlar ko'ngillarda: "Birorta diplom olsa bo'ldi", degan istak ustunlik qilardi. Kun kelib, uning o'rnini: "Qanday bilim oldi?" degan savol egalladi. Chunki yangi hayot avvalgidan ancha baland talab qo'ya boshladi. Endi to'g'ri, ba'zan egri yo'llar bilan olingan yaxshi bahoning o'zi yetarli emasdi. O'zbekiston dunyo bilan bo'ylashmoqda edi. Xorijiy tillarni o'rganish zarur. Yurt taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi: texnikasiz qadam tashlash qiyin. O'quvchi kompyuter va internet bilan ishlay olishi shart. Dunyo endi bilim va tafakkur bellashadigan raqobat maydoniga aylanmoqda. O'quvchi shu maydonga kirishga tayyor bo'lishi lozim edi. Ana shu ehtiyojlar ta'lim jarayonini ham o'zgarishga majbur qildi. Avval maktab bolani hayotga tayyorlardi. Endi hayotning o'zi maktabdan mutlaqo boshqacha insonni tayyorlash, tarbiyalashni talab qila boshladi. Yangi darsliklar paydo bo'ldi, yangi o'qitish usullari kirib keldi. O'qituvchi ham o'z ustida ishlamas, yangi jarayonga munosib bo'lmasa, sinfga kirishning o'zi yetarli emasligini anglay boshladi. O'quvchi ham kitob sahifalaridagi yozuvlarni yodlash emas, ularni anglash yo'liga o'tishi zarurligini tushundi. Shu tariqa ta'lim asta-sekin yodlashdan fikrlashga, takrorlashdan izlanishga, tinglashdan mulohaza qilishga burildi. Bu o'zgarishlar bir qarashda unchalik sezilmasdi. Ammo aynan shu yillar keyingi buyuk sakrashlar uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Avval maktabga bolaning savodini chiqaradigan joy deb qaralardi. Endi esa u mamlakat taqdirini hal qiladigan eng muhim maskan sifatida e'tirof

etilmoqda. Chunki anglash kuchaygan sari bir haqiqat tobora oydinlashdi: neft, oltin yoki gaz qazib olish bilan mamlakat iqtisodini yuksaltirish mumkin. Ammo haqiqiy olimning ilmi yurtga ana shu boyliklardan ham ko'proq manfaat keltirishi mumkin. Shuning uchun istiqlol yillarida ta'lim sohasiga kiritilgan har bir sarmoya, aslida, inson tafakkurini yuksaltirishga qaratilgan sarmoya edi. Bu yo'lda chuqur o'ylanmasdan qabul qilingan qarorlar ham, xatolar ham bo'ldi. Ammo orqaga qaytish bo'lmadi. Chunki ta'lim islohotlariga mas'ul insonlar yaxshi anglab yetdilar: bugun texnologiya kirib bormagan maktabga, zamon talabiga javob bermaydigan darslik va dasturlarga befarq qaralsa, ertaga jamiyat katta ma'naviy yo'qotishlarga duch keladi. Shu bois avval maktablar o'zgardi. So'ng ularning ichki muhiti yangilandi. Keyin esa bolaning orzusi...

Bir paytlar chet tilini bilish, hatto, shahar bolasi uchun ham katta yutuq sanalgan bo'lsa, bugun eng chekka qishloqdagi o'quvchi ham xalqaro sertifikat olishni kundalik maqsadlaridan biri deb biladi. Bir vaqtlar kompyuterni faqat darslik rasmlarida ko'rgan bolalar bugun robot yasayapti, dastur yozayapti, xalqaro olimpiadalarida oltin va kumush medallarni qo'lga kiritib, eng baland shohsupalarga ko'tarilayapti. Hali bolalik olamidan uzoqlashmagan o'g'il-qizlarimiz tufayli O'zbekiston madhiyasi yangrab, davlatimiz bayrog'i yuksaklarga ko'tarilmoqda. Eng muhimi, bolalarning maqsadi o'zgardi. Ilgari "Institutga kirsam bo'ldi", degan orzu yetarli edi. Bugun esa ular qaysi universitetda, qaysi mamlakatda, qaysi ilmiy laboratoriyada tahsil olishini ancha oldindan rejalashtirmoqda.

Bu orzular yosh ko'ngillarga osmondan tushgani yo'q. Bu yuksalishlar mamlakatimizda yillar davomida ta'lim sohasiga sarflangan mehnat, mablag', va eng muhimi, qabul qilingan adolatli qonunlar hamda qarorlar samarasidir. Aynan shu huquqiy asoslar tufayli faqat iqtisodiyotda emas, ma'naviyat va ma'rifat sohasida ham xususiy sektor uchun keng yo'l ochildi. Bu esa yoshlarga tanlash huquqini kengaytirdi. Bir paytlar minglab yoshlarning taqdiri sanoqli OTMlar eshigi oldida hal bo'lardi. Bir ball yetmay qolsa, yillar davomida qurilgan orzu ham ortga surilardi. Bugun esa yoshlar: "Qayerga kiraman?" degan savoldan ko'ra, "Qaysi universitet orzumga yaqin?" degan savol ustida ko'proq o'ylamoqda.

Aslida, bu yuksalishlar poydevori ancha quyidan – bog'chalaridan boshlangan. Xususiy maktab va bog'chalarning ko'payishi ham ta'limga mutlaqo boshqacha muhit olib kirdi. Ota-onaning ishonchini qozonish, bolaning iqtidorini kashf etish, zamonaviy dars o'tish, chet tillarni

ko'chayotgan bayramlar

puxta o'qitish, raqamli texnologiyalarni joriy etish – bular endi shunchaki bilim berish vositalari emas, balki ta'limning haqiqiy ehtiyojiga aylandi. Chunki bugun raqobatda chiroyli binosi bilan emas, bilimli bitiruvchisi bilan ajralib turadigan maktab yutadi. Ta'limdagi o'zgarishlarning eng yorqin namunasi Prezident ta'lim muassasalari agentligi faoliyati bilan bog'liq. Ko'pchilik bu tizim haqida gap ketganda, avvalo, muhtasham binolarni ko'z oldiga keltiradi. Aslida esa uning haqiqiy qiymati devorlarida emas, balki dasturlarida. Bu dasturlar o'g'il-qizlarimizning fikriy balandliklarini yuksaltirishga, tafakkur dunyosini kengaytirishga qaratilgan. Bu fikrlarni o'nlab hayotiy misollar bilan isbotlash mumkin. Farg'ona viloyati Quva tumanida voyaga yetgan Dilafruz Sobirova ana shunday iqtidorli yoshlardan biri. Bolaligi ham boshqa qishloq qizlarinikidan uncha farq qilmasdi. Farqi shunda ediki, qalbida katta orzular ertaroq uyg'ondi. Tengdoshlari ko'chada quvlashmashoq o'ynayotgan paytlari Dilafruz ingliz tili kitoblari boshida muk tushgan bo'lardi. Ba'zan derazadan ularga havas bilan qarar, ammo qalbidagi katta maqsad uni shu lahzaalik havasga berib qo'ymasdi. Chunki uning butun borlig'ini bir orzu egalagan edi. Hammanikiday emas, boshqacharoq hayotda yashashi uni Prezident maktabiga olib keldi. Bu yerda uning maqsadlari yanada ulg'aydi. U xalqaro imtihonlarda yuqori natijalarga erishdi, olimpiadalarda qatnashdi, chet tillarni mukammal o'zlashtirdi. Har bir yutuq uni yana yangi marralarga chorlardi.

Nihoyat, bir kuni kompyuter ekranida bir jumla paydo bo'ldi: “Tabriklaymiz!” Bu Harvard universitetining qabul xati edi. O'sha daqiqada quvalik qizaloqning orzusi ushaldi. Ammo bu faqat Dilafruzning shaxsiy g'alabasi emasdi. Bu – ta'limdagi islohotlar yaratgan imkoniyatning samarasi edi.

Bugun Prezident maktablarida, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, hatto oddiy umumta'lim maktablarida ham dunyo universitetlariga yo'l olayotgan, xalqaro olimpiadalarda Vatan bayrog'ini baland ko'tarayotgan, ilm bilan mamlakat nomini tanitayotgan yuzlab yoshlar kamol topmoqda.

Demak, gap bitta maktab yoki bitta iqtidor haqida emas. Gap O'zbekiston ta'lim tizimining butunlay yangi o'zangatushganida. Kecha yoshlar OTMga kirishni orzu qilgan bo'lsa, bugun ular Harvard, Kembrij, Oksford, Tokio yoki Singapur universitetlarida tahsil olishni mutlaqo tabiiy maqsad deb bilmoqda. Orzu ulg'aygan joyda millatning kelajagi ham yuksaladi. O'quvchilardagi bu o'zgarishlar ustozlardagi yuksalishning aks sadosidir. Buxorolik yosh o'qituvchi Billura Ikromova ana shunday yangilik qilishdan cho'chimaydigan, bilimi va jasorati bilan ko'plab yoshlarni izidan ergashtira olgan ustozlardan

biridir. Uning hayotidagi eng katta qaror xorijda o'qishi emas, xorijdan qaytishi bo'ldi.

Buyuk Britaniyaning Reading universitetini tamomlagan yosh mutaxassis uchun katta kompaniyalar yoki nufuzli tashkilotlarda ishlash imkoniyati yetarli edi. Takliflar ham oz emasdi. Lekin u boshqa yo'lni tanladi. Ko'ngli uni ona yurtga boshladi. Jiloli, serhasham yo'llar orasidan u Vatan yo'lini tanladi.

O'tgan yili O'qituvchi va murabbiylar kuni bayrami arafasida soha xodimlari bilan o'tkazilgan muloqotda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Buxoro viloyati Romitan tumanidagi 38-maktabning ingliz tili o'qituvchisi Billura Ikromova faoliyatini alohida e'tirof etdi:

– Bugungi tadbirimizda yosh bo'lishiga qaramasdan, yuzlab o'g'il-qizlarimizni bilim cho'qqilari sari fidoyilik bilan yetaklayotgan kognolik qizimiz Billura Ikromova ham qatnashyapti. Billura qizimiz Buyuk Britaniyaning Reding oliygohini bitirib, katta-katta idoralardan bo'lgan takliflarni rad etib, Romitaning eng chekka qishlog'idagi maktabda ingliz tilidan dars bermoqda.

Billura TESOL, ESOL va IELTS kabi nufuzli xalqaro sertifikatlar sohibi, qishloq qizlari uchun mentorlik loyihasi tashabbuskori. Uning tashabbusi bilan yirik grantlar uchun loyihalar tayyorlanib, yuzlab yoshlar xorijda ta'lim olish va xalqaro dasturlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bugun bu fidoyi muallimaga yuksak ishonch ramzi va mehnatining e'tirofi sifatida Prezident sovg'asi – BYD Chazor avtomobili tantanali ravishda topshirildi.

Mamlakatimiz rahbarining yuksak ishonchidan ruhlangan Billura ham anjuman ahliga dil so'zlarini izhor qildi:

– Mamlakatimizda o'qituvchilar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli mening yuksak orzularim ro'yobga chiqdi va men bugun bor salohiyatim hamda kuch-g'ayratimni ona Vatanim ravnaqi yo'lida safarbar etishga bel bog'laganman.

Muallima bu qarorni maosh, mansab yoki biror imtiyoz uchun qabul qilmadi. Bu – Vatanga bo'lgan chin muhabbat va e'tiqodning ifodasi edi. Billura Ikromova – yuzlab ana shunday fidoyi ustozlarning biri, xolos. Uning nomi shaxsiy muvaffaqiyatlari uchunagina mashhur bo'lib ketmadi. U Yangi O'zbekiston tarbiyalayotgan butun bir avlod ustozlarining timsoliga aylangani uchun ham bunday e'tirofga munosibdir. Muvaffaqiyat ko'pincha qiyosda yaqqol namoyon bo'ladi. Yana maktab yillarim yodimga tushadi. Ko'z oldimga dars payti isitmasi chiqqan sinfdoshimizni yelkasiga ko'tarib shifokor huzuriga olib ketayotgan ustozim keladi. Uyidan o'tin tashib kelib, sinfxonadagi cho'yan pechkaga o't yoqqan, uy vazifasini yaxshi bajargan bolaga bir hovuch turshak berib ko'nglini ko'tar-

gan mehribon muallimlarim birin-ketin yodim ko'zgularida gavdalanadi. Har birimizning hayotimizda shunday us-tozlar bo'lgan, albatta. Ular bizga faqat saboq bermagan. O'zimizni kuchsiz his qilganimizda dalda bo'lgan. Yiqilganimizda qo'limizdan tutgan. Ko'nglimizda ishonch so'na boshlagan lahzalarda esa bizga o'zimizdan ham ko'proq ishongan. Shuning uchun xalqimiz bejiz: “Maktab – ikkinchi oila”, demaydi. Bu iboraning mazmunini anglash uchun ba'zan birgina insonning mehri kifoya. Shunday insonlardan biri – o'quvchilari mehr bilan “direktor oyi” deb ataydigan Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 354-maktab direktori Gulnoza Mansurxonovadir. U bilan suhbatlashish har qanday inson xotirasidagi ustoz timsolini yanada mukammallashtiradi.

– Sohamizdagi o'zgarishlar tafakkurni yuksaltirishga, zehnni charxlashga qaratilgan bo'lsa, biz ularni jon-u dilimiz bilan qabul qilamiz. Bugungi o'quv dasturlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'g'il-qizlarimizni ijodkorlikka yo'naltirish birinchi o'rinda turadi. Darsliklar mashg'ulotlarimizning o'zagi, xolos. Darslar adabiy, tarixiy va ilmiy manbalar bilan boyib boradi. Buning uchun ham o'qituvchi, ham o'quvchi tinmay izlanishi kerak, – deydi u. So'zining shu joyiga keltiranda direktor xuddi hamkasblariga murojaat qilayotgandek o'rnidan turib ketadi.

– Bolalarimni har kuni ertalab diqqat bilan kuzataman. Qo'llaridagi rangli qog'ozlardan, gul-giyohlardan yasalgan ishlanmalarni ko'rib suyunaman. Bu – ularning o'z ustida ishlayotganining belgisi. Darslarda o'z fikrini himoya qilib bahslashayotganlarini ko'rganimda ertangi kunni tasavvur qilib to'lqinlanaman. Kim nima desa bosh iring'ab qo'ya qoladigan emas, har bir voqeaga o'z nuqtayi nazariga ega avlod ulg'ayib kelyapti. Shunday jonkuyar rahbarlar kabinetiga bolalar faqat tanbeh eshitish uchun kirmaydi. Dardini aytish uchun, maslahat so'rash uchun, quvonchini bo'lishish uchun kiradi. Ba'zan bir ishonchli nigoh bolaning butun taqdirini o'zgartirishi mumkin. Bolani kitobga qiziqtirish mumkin. Ammo uning qalbidagi o'z kuchi va iqtidoriga ishonch uyg'otish har kimning ham qo'lidan kelmaydi.

Bugun maktablarda ana shunday mehr muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilayotgani ham bejiz emas. Chunki bilim aqlni boyitsa, mehr insonni ulg'aytiradi. Ikkalasi birlashgan joydagina haqiqiy tarbiya boshlanadi. Bizning, shaxsan mening qalbimga g'urur bag'ishlaydigan yana bir jihat – kitobga munosabatning butunlay o'zgarganidir. Bir paytlar kitob mutolaasi faqat ayrim ziyoli oilalarning odatidek ko'rinardi. Kitobsevar bola ko'pincha kutubxonaning bir burchagida yolg'iz o'tirar, uning mehnati esa deyarli hech kimning e'tiborini tortmasdi. Bugun esa manzara mutlaqo boshqacha. Kitob o'qigan,

tafakkurini boyitgan yoshlar davlat e'tiborida. Kitobxonlik tanlovlari minglab o'g'il-qizlarni birlashtirmoqda. Bunday yuksak e'tibor kitobxonlik muhitini kuchaytirishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Kitob bilan boyigan tafakkur insonni butun umr yuksak marralar sari yetaklaydi. Shuning uchun ham bugun kitobxonlikka qaratilayotgan e'tiborni oddiy tanlov yoki aksiya deb baholab bo'lmaydi. Bu – millatning intellektual kelajagiga kiritilayotgan sarmoyadir.

Bugun ta'limga raqamli texnologiyalarning joriy etilayotgani ham tabiiy jarayon. Elektron platformalar, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim – bularning barchasi zamon talabi.

Shuning uchun bugungi Yangi O'zbekiston ta'limi raqamli imkoniyatlar bilan ma'naviy ozuqani yagona maqsad yo'lida uyg'unlashtirmoqda. Chunki kelajakni faqat texnologiya bilan ham, faqat kitob bilan ham qurib bo'lmaydi. Kelajakni kitob mutolaasi bilan boyigan tafakkur va zamonaviy bilimni uyg'unlashtira olgan avlod barpo etadi. Ba'zan oqshomlari osmonga termulib qolaman. Bir paytlar biz yulduzlarni sanardik. Bugun esa bolalarimiz o'sha yulduzlarga yetib borishni maqsad qilmoqda. Kechagina paxta dalasida sovuqdan qo'llari yorilgan bolalar voyaga yetgan yurtda bugun maktab o'quvchilari sun'iy yo'ldosh yasayapti, robotlar dasturlayapti, xalqaro olimpiadalarda munosib ishtirok etib, Vatan bayrog'ini eng baland shohsupalarga olib chiqmoqda. Ular Oy haqida she'r yodlabgina qolmayapti. Oyga parvoz qilish texnologiyalari haqida bahslashmoqda. O'ttiz besh yil avval mustaqillikka qadam qo'ygan mamlakat oldida eng ulug' vazifa – erkin fikrlaydigan insonni tarbiyalash edi. Bugun bosib o'tilgan yo'lga nazar tashlasak, uning har bir bekati munosib nom berish mumkin. Bu yo'lning nomi – sinov. Uning davomi – mashaqqat. Keyingi manzili – zahmat, undan keyingisi matonat. Ana shu yo'llar orqali mamlakatimiz bugungi yuksalishga yetib keldi. Paxtazordan sinfxonagacha... Chang bosgan kitoblardan raqamli laboratoriyalargacha...

Bu – o'ttiz besh yillik istiqlol yo'lidir. Maktabga kirganimda ko'zlari porlab turgan, turli tillarda erkin muloqot qilayotgan, ertangi kunini dunyo xaritasi bilan bog'layotgan yangi avlodni ko'raman. Shunda qalbimni iftixor tuyg'usi to'ldiradi. Ana shu o'g'il-qizlar ertangi O'zbekistonning eng katta boyligidir.

Istiqlolning eng ulug' mevasi bugun maktab partasida o'tirgan bolaning ko'zida porlayotgan ishonchdir. Uning yuragida yashnayotgan umiddir. Yoshlarimiz nigohida shu umid porlab turar ekan, Yangi O'zbekistonning ertangi kuniga bo'lgan ishonch mustahkam tortaveradi.

Qabul – 2026

JORIY YILGI BAKALAVRIATGA QABULDA

Tandirda o't lovullaydi. Hamma ham yaqinlasha olavermaydigan bu haroratga bir inson – ona bag'rini berib, shirin orzular ila non yopadi. Zum o'tmay, quyosh yanglig' yaltirab, hidi olamni tutib non pishadi... Tovuqxonadan bugungi tuxumlar ham olinadi: harna bitta bo'lsayam, ko'paygani yaxshi! Haftadan buyon yig'ilayotgan suzma maxsus idishlarga solinadi. Ota polizda nimaiki bo'lsa yig'ib, bularning hammasi shaharda o'qishga tayyorlanayotgan farzandga yetkaziladi. Shaharda esa yana bir hayot davom etadi: tong sahardan dars, test, tun yarmigacha o'qish, takrorlash... Shu zaylda oylar o'tadi. Ha, bugun talabalik nash'asini his qilayotgan har bir farzand ortida shaharda bo'ladimi, qishloqda, unga orzulari esh bo'lgan – “Bolam mendan yaxshi hayotda yashashi kerak!”, deya bor kuchini safarbar qilgan ota-onalar armiyasi, tinim bilmagan ustozlar mashaqqati bor. Ya'ni avgust g'alabasini faqatgina abituriyent kutmaydi! Yaqindagina joriy yilgi bunday hayajonli onlar o'z nihoyasiga yetdi – qabul jarayonlari yakunlandi. Kimdir grant, kimdir kontrakt asosida talaba bo'ldi. Yana kimdir bu yilcha maqsadiga yetolmadi. Jarayonda raqobat muhiti qanday kechgani, asosiy o'zgarishlar nimalarda aks etgani va kelgusi yillardagi qabul jarayonlarida qanday o'zgarishlar kutilayotgani, albatta, ko'pchilik mushtariyimizga qiziq. Shu bois, mavzuga oid asosiy o'zgarish va tendensiyalarni tahlil qildik.



Shahnoza YANGIBOYEVA,
“Ma'rifat” muxbiri

QABULNING UMUMIY MANZARASI

Bu yil oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish uchun 677,9 ming abituriyent onlayn ro'yxatdan o'tdi. Qabul jarayoni “avval test – so'ng tanlov” tamoyili asosida ikki bosqichda tashkil etildi. Abituriyent avval bilimini sinovdan o'tkazdi, keyin esa o'z natijasidan kelib chiqib OTM, ta'lim yo'nalishi va ta'lim shaklini tanladi. Testlar respublika bo'yicha 64 ta katta sig'imli binoda o'tkazildi. Jarayonlar videokuzatuv ostida tashkil etilib, ota-onalarga ham testlarni onlayn kuzatish imkoniyati yaratildi. Milliy va xalqaro sertifikatlariga ega qariyb 13 ming nafar, shuningdek, belgilangan imtiyozlarga ega 302 nafar abituriyent test sinovlaridan ozod qilindi. 389,1 ming abituriyent 56,7 balidan yuqori natija qayd etib, tanlovda ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi.

RAQOBAT MUHITI

Yakuniy tanlov natijalariga ko'ra, bakalavriatga 209,1 ming abituriyent talabalikka tavsiya etildi. Shundan 52,8 ming nafari davlat granti, 156,3 ming nafari to'lov-kontrakt asosida o'qish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Alohida qabul ko'rsatkichlari va imtiyozlar doirasida esa yana 20,5 ming nafar abituriyent talabalikka tavsiya etildi.

O'tish ballarining sezilarli ko'tarilgani – joriy yilgi qabulning eng e'ti-

borli jihatlaridan biri bo'ldi. Davlat granti bo'yicha o'rtacha o'tish bali 134,6 ball, to'lov-kontrakt bo'yicha esa 93,7 ballni tashkil etdi. O'tgan yili bu ko'rsatkichlar mos ravishda 121,8 va 84,9 ball bo'lgan. Demak, bir yil ichida grant bo'yicha o'rtacha o'tish bali 12,8 ball, kontrakt bo'yicha esa 8,8 ballga oshgan. Shu bilan birga, abituriyentlarning 37,5 foizi o'tish bali – 56,7 ballni ham to'play olmagan. Bu ko'rsatkich avvalgi yillar bilan taqqoslaganda yaxshiroq. 2022-yili minimal ballni to'play olmaganlar ulushi 51,2 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 49,4, 2024-yili 46,9, 2025-yilda 41,2 foizni tashkil etgan. 2026-yilda esa bu raqam 37,5 foizgacha kamaydi. Ya'ni besh yil ichida minimal chegaradan past natija qayd etganlar ulushi qariyb 14 foizga qisqargan. Biroq hali ham har uch abituriyentdan biri tanlovda qatnashish uchun zarur minimal natijaga erisha olmayapti. Jarayonda muammo ikki tomonlama tus olmoqda: bir tomondan, testda minimal chegaradan o'ta olmayotganlar ulushi izchil kamaymoqda, ikkinchi tomondan esa, tanlovga kirganlar o'rtasidagi raqobat kuchaymoqda. Ya'ni abituriyentlarning bilim darajasidagi umumiy ko'rsatkich yaxshilanayotgan bir paytda talabalikka tavsiya etilishning o'zi qiyinlashayotir. Hatto yuqori ball ham talabalikni kafolatlayolmayapti.



IMTIYOZ HAM RAQOBATDAN XOLI EMAS!

Imtiyozli toifadagi abituriyentlar uchun o'tish ballarining o'zgarishi ham alohida e'tiborga loyiq. Xususan, joriy

yilda tavsiyanoma olgan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun ayrim hudud va sohalarida o'tish ballari sezilarli oshgan. Bu bir tomondan, mazkur imkoniyatga talab kuchayganini, ikkinchi tomondan esa, imtiyozli kvotalarning o'zi ham raqobatdan xoli emasligini ko'rsatadi. Ya'ni 56,7 ballik minimal chegaradan o'tish va imtiyozga ega bo'lishning o'zi talabalikni kafolatlamaydi. Ajratil-

Ehtiyojmand xotin-qizlar uchun berilgan tavsiyanoma asosida 4 mingta davlat granti kvotasi uchun o'tish ballari (2026-yil) (hududlar va sohalar kesimida)

№	Hudud nomi	Aniq va tabiiy fanlar	2025-yil bilan farq	Texnika fanlari	Farq	Tibbiyot fanlari	Farq	Boshqa umumiy	Farq
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	69,5	1,2	89,4	1,1	68,6	-26,6	144,6	11,7
2	Andijon	70,3	-9,7	70,7	0,8	119,3	7,1	142,5	14,1
3	Buxoro	88,0	2,6	76,0	3,1	129,4	13,0	164,0	-0,9
4	Farg'ona	68,4	0,1	93,1	21,5	120,7	0,3	151,3	5,0
5	Jizzax	69,4	1,4	74,3	4,1	88,0	-31,1	151,7	16,1
6	Namangan	68,5	0,3	104,7	32,0	143,6	22,4	150,8	22,1
7	Navoiy	75,8	6,5	68,2	-12,8	103,9	28,1	155,9	13,0
8	Qashqadaryo	69,5	-6,3	85,1	12,7	112,3	4,3	148,8	19,5
9	Samarqand	68,6	-4,9	102,7	34,1	122,3	8,4	147,5	14,3
10	Sirdaryo	68,4	0,3	132,8	49,2	69,2	-9,0	142,7	18,7
11	Surxondaryo	68,7	-0,8	99,8	31,1	89,5	-11,0	144,4	12,9
12	Toshkent shahri	-	-	70,1	-29,8	130,7	44,5	146,5	-2,0
13	Toshkent viloyati	71,0	2,6	68,1	0,0	83,2	-27,1	147,9	15,1
14	Xorazm	68,0	-0,1	94,6	21,7	76,0	-4,1	152,4	14,8

gan imkoniyatdan foydalanayotganlar orasida ham bilim va natija bo'yicha tanlov davom etadi.

E'tibor beradigan bo'lsak, bir hududda muayyan yo'nalish bo'yicha talab keskin oshib, o'tish bali yuqorilayotgan bo'lsa, boshqa hududda aksincha pasayish kuzatilgan. Eng katta farq Sirdaryo viloyatida texnika sohasi uchun bo'lgan – 49,2 ball oshgan. Keyingi o'rinlarda quyidagi hududlar uchun o'tish ballari keskin ko'tarilgan.

- **Toshkent** (tibbiyot) – **44,5 ball;**
- **Samarqand** (texnika) – **34,1 ball;**
- **Namangan** (texnika) – **32 ball;**
- **Surxondaryo** (texnika) – **31,1 ball;**
- **Navoiy** (tibbiyot) – **28,1 ball.**

Ba'zi hududlarda o'tish ballari tushgan. Eng katta ball tushishi Jizzax viloyatida tibbiyot sohasida qayd etilgan – 31,1 ball tushgan. O'tgan yili Jizzaxda tibbiyot sohasi uchun o'tish bali 119,1 ball bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 88 balldan yuqori to'plagan 63 nafar jizzaxlik qiz tibbiyot yo'nalishiga grant asosida o'qishga kirgan.

Keyingi o'rinlarda quyidagi hududlar uchun o'tish ballari keskin tushgan:

- ♦ **Toshkent** (texnika) – **29,8 ball;**
- ♦ **Toshkent viloyati** (tibbiyot) – **27,1 ball;**
- ♦ **Qoraqalpog'iston** (tibbiyot) – **26,6 ball.**

Shuningdek, quyida kvota ajratilgan 8 ta tashkilot ro'yxati, kvotalar soni hamda ularning o'tish ballari bilan tanishishingiz mumkin.

Eng past o'tish bali **Milliy gvardiya** to'g'ri kelgan – **68 ball.** Eng yuqori o'tish bali esa **Ichki ishlar vazirligida** – **167 ball.** Lekin boshqa jihati ham bor, Ichki ishlar vazirligi xodimlari uchun bundan tashqari alohida imtiyoz ham mavjud. U imtiyozga

ko'ra, IIV xodimlari uchun **1 ming 828 ta** qo'shimcha grant kvotasi berilgan va u yerda o'tish bali **78,6 ball** bo'lgan. Ya'ni 78,6 balldan yuqori ball olgan IIV xodimlarining farzandlari **o'zlari tanlagan istalgan yo'nalishga 4 yillik grant asosida** qabul qilingan.

IMKONIYATLAR KENGAYMOQDA!

Talabalikka tavsiya etilmaganlar oldida muqobil yo'llar kengaymoqda. Shunday imkoniyatlardan biri – 6-yo'nalish. O'tgan yili joriy qilingan mazkur imkoniyat talabgorning fan tanloviga mos yana 5 tagacha OTMni tanlab, bali yetgan joyda to'lov-kontrakt asosida talaba bo'lish imkonini beradi. Bu yil 80 ta oliy ta'lim muassasasida 31 808 ta vakant o'rin mavjud bo'lib, 56,7 va undan yuqori ball to'plagan,

QANDAY MUHIM O'ZGARISHLAR BO'LDI?

Harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun ajratilgan qo'shimcha davlat granti kvotasining o'tish ballari (2026-yi) (tashkilotlar kesimida)

T/r	Tashkilot nomi	Ajratilgan kvota soni	O'tish bali
1	Milliy gvardiya	731	68
2	Elektron texnologiyalar markazi	37	98,8
3	Favqulodda vaziyatlar vazirligi	238	105,9
4	Mudofaa vazirligi	813	109,6
5	Davlat xavfsizlik xizmati	570	117,9
6	Harbiy prokuratura	9	121,8
7	Prezident davlat xavfsizlik xizmati	37	149,9
8	Ichki ishlar vazirligi	124	167

ammo talabalikka tavsiya etilmagan abituriyentlar ushbu imkoniyatdan foydalanishi mumkin. Ular 22–28-avgust kunlari ro'yxatdan o'tib, fanlar majmuasi va ta'lim tili mos bo'lgan vakant yo'nalishlarni tanlashi lozim. Ma'lumot o'rnida, mazkur qo'shimcha qabul uchun mavjud 31 833 ta bo'sh o'rinning 16 240 tasi, ya'ni 51 foizi matematika + fizika fanlar majmuasiga tegishli. Keyingi o'rinlarda:

- Matematika + kimyo – 3 576 ta;
- Biologiya + ona tili – 3 531 ta;
- Ijodiy imtihonli – 3 244 ta;
- Biologiya + kimyo – 2 824 ta.

Ushbu 5 ta fan majmuasining o'zi barcha vakant o'rinlarning 92% dan ortig'ini tashkil qilmoqda. Ya'ni agar shu bloklar ketma-ketligida imtihon topshirib, o'qishga kirolmagan bo'lsangiz, oldingizda yana katta imkon turibdi.

Talabalikka tavsiya etilmagan abituriyentlar uchun yana bir imkoniyat – tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt, ya'ni super-kontrakt. Amaldagi tartibga ko'ra, qabul chegarasiga 4,05 ball dan ortiq yetmagan abituriyentlar uchun tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt miqdori bazaviy kontraktning kamida uch barobari miqdorida belgilanadi.

Alohida ta'kidlash joizki, 2025-2026-o'quv yilidan boshlab, OTMga o'qishga kirishda 4,06 va undan ko'proq ball yetmasa, tabaqalashtirilgan kontrakt miqdorini OTM rektori yoki direktori mustaqil belgilamoqda. Bunda miqdor bazaviy kontraktning uch baravaridan kam bo'lmasligi lozim. Yana bir muhim jihat: amaldagi tartibda eski yillardagi “8, 10, 12, 15, 17 yoki 25 baravar” kabi yagona shkala umumiy qoida sifatida qo'llanmaydi. Shuningdek, bir xil ball bilan turli OTMlarda o'qish imkoniyatining narxi turlicha bo'lishi mumkin.

Anglaganingizdek, talabalikka tavsiya etilmaslik oliy ta'lim imkoniyatlari butunlay yopildi degani emas!

ASOSIY TENDENSIYALAR:

- ♦ Abituriyentlar tarkibida ayni yilgi bitiruvchilar ulushi oshdi.

- ♦ Sertifikatlarning qabuldagi roli keskin kuchaydi.
- ♦ Testdan ozod etilib, bevosita tanlovga o'tkazilganlar soni qariyb 19 barobar ko'paydi.

BALLAR KO'TARILISHIGA QAYSI OMILLAR SABAB BO'LDI?

Abituriyentlar soni joriy yilda sezilarli darajada oshmagan. Ro'yxatdan o'tganlar soni o'tgan yilgi 671,4 ming nafardan 677,9 ming nafarga yetib, 6,5 ming nafar yoki qariyb 1 foizga oshdi. Biroq raqamning o'zidan ko'ra, uning tarkibidagi o'zgarish e'tiborga molik: o'tgan yilgi abituriyentlar tarkibida bitiruvchilar soni 426,7 ming bo'lgan bo'lsa, joriy yil bu ko'rsatkich 451,7 ming nafarga yetdi. Ularning jami abituriyentlar tarkibidagi ulushi ham 63,6 foizdan 66,6 foizga ko'tarildi. Avvalgi yillarda ta'lim muassalarini tamomlagan abituriyentlar soni esa 244,7 ming nafardan 226,2 ming nafarga kamaydi. Demak, oliy ta'limga kirish istagidagi yoshlarning asosiy qatlami tobora maktab, akademik litsey va professional ta'limni ayni yili tamomlayotgan bitiruvchilar hisobiga shakllanmoqda. Ya'ni ko'pchilik “o'z yili”da talaba bo'lmoqda. Biroq abituriyentlar sonining keskin ko'paymaganiga qaramay, o'tish ballari oshdi. Buning ortida esa qabul tizimidagi yana bir muhim o'zgarish – sertifikatlarining roli kuchaygani turibdi.

Joriy yildan boshlab bakalavriatning fanlar majmuasida chet tili fani mavjud bo'lgan ta'lim yo'nalishlariga qabulda B1 darajadagi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatga ega abituriyentlarga ushbu fandan belgilangan maksimal ballning 75 foizi miqdorida ball beriladigan bo'ldi. O'tgan yillarda bu imkoniyat yo'q edi. Bundan tashqari, belgilangan har bir fandan sertifikati bor abituriyentlar ham ko'p bo'ldi – qariyb 13 ming nafar abituriyent milliy va xalqaro sertifikatlari sabab testdan ozod qilindi. Umumta'lim fanlari bo'yicha milliy va xalqaro sertifikatga ega abituriyentlar soni bir yil ichida 85,1 ming

nafardan 193,2 ming nafarga yetib, qariyb 2,3 barobar oshgan. Chet tillari bo'yicha sertifikatga ega talabgorlar soni ham 58,2 ming nafardan 125,4 ming nafarga ko'paygan. Eng muhimi, barcha zarur sertifikatlarga ega bo'lgani uchun test sinovlaridan ozod etilib, bevosita tanlov bosqichiga o'tgan abituriyentlar soni 678 nafardan 12 997 nafarga yetdi. Ya'ni bir yilning o'zida qariyb 19 barobar o'sish kuzatildi.

SERTIFIKAT BEKOR BO'LADIMI?

Quvonarlisi shundaki, avvalgi yillarda sertifikat bilan OTMga qabul qilinganlar o'qish mobaynida ham fanlarni yaxshi o'zlashtirgan va yaxshi natijalar ko'rsatayotgani aniqlangan. Bu haqida joriy yilgi qabul jarayoni tahliliga bag'ishlangan anjumanda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari Sardor Rajabov alohida ta'kidladi. Biroq u kelgusida sertifikat bilan maksimal ball berish tizimini qayta ko'rib chiqish masalasi ham muhokama qilinishi, o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini aytdi. Vazir o'rinbosarining qayd etishicha, bunga maksimal (189) ball yig'ganlar soni ortib, muayyan OTMda belgilangan kvotadan tashqari ham talaba olishga to'g'ri kelayotgani sabab bo'lmoqda.

Fikrimizcha, bu jarayon mos ravishda bunday OTMlarda o'qitish sifati tushishi, o'quv resurslari va TTJlar bilan ta'minlashda muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ta'lim sohasi mutaxassisi Komil Jalilov esa milliy yoki xalqaro sertifikatni “imtiyoz” sifatida baholash to'g'ri emas, degan fikrda.

– ...Milliy yoki xalqaro sertifikatlar (IELTS, SAT, A-Level yoki boshqa) asosida o'qishga kirishning “imtiyoz” deb hisoblanishiga qarshiman: bu imtiyoz emas, sertifikatlar abituriyentning tegishli fandan maktab bitiruvchisi uchun qo'yiladigan talablarni bajarganligini tasdiqlaydi, – deydi mutaxassis. – Ya'ni abituriyent sertifikat olishi uchun o'sha fandan imtihon topshiradi va bu imtihon mohiyatan 30 ta test topshirig'ini ishlab chiqishdan ko'ra murakkabroq: test topshiriqlari (savollar) soni ko'proq, tegishli fanning bo'limlari kengroq qamrab olinadi, ochiq testlar (ya'ni abituriyent shunchaki berilgan javob variantlaridan bittasini tanlashi emas, yechimni ko'rsatishi yoki o'z fikrini bayon qilishi talab qilinadigan savollar) ham mavjud. Masalan, ingliz tili misolida – kirish imtihoni asosan grammatika va qisman o'qib tushunishni qamrab olsa, sertifikat to'rtta ko'nikma(tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirish)ni qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan Sardor Rajabovning milliy sertifikat tizimi test tizimiga qaraganda murakkabroq, degan fikriga qo'shilaman. Umuman, mening nazarimda, yoki yagona imtihon (maktabni bitirganda topshiriladi-

gan imtihon – shuning natijalari bilan OTMga kiriladi), yoki sertifikat tizimi bo'lishi kerak. Hozirgi test tizimidan voz kechish kerak: bir kunda 5 ta fandan test abituriyentning butun maktab dasturini qay darajada o'zlashtirgani va qay darajada OTMda o'qishga tayyorligini mukammal aniqlab bera olmaydi.

Biroq bu fikr test tizimini birdaniga bekor qilish zarurligini anglatmaydi. Chunki sertifikatga ega bo'lish imkoniyati barcha abituriyentlar uchun bir xil emas, ularning ta'lim muassasasi, tayyorgarlik muhiti va moliyaviy imkoniyatlari turlicha.

Ba'zi ta'lim sohasi vakillari esa kelgusida sertifikat uchun maksimal 189 ballning ma'lum foizini berish kabi model qo'llanishi mumkinligini taxmin qilmoqda. Masalan, 50 yoki 70 foiz. Ammo bu hozircha taklif va taxmin darajasida bo'lib, yakuniy qaror qabul qilingani yo'q. Bir narsa aniqki, qanday shakl tanlanishidan qat'i nazar, sertifikatlar qabul tizimining tobora muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

ABITURIYENTLAR TANLOVIDA QAYSI YO'NALISHLAR USTUNLIK QILDI, QAYSI YO'NALISHLARGA TALAB ORTISHI KUTILMOQDA?

Bu yil eng ko'p tanlangan oliy ta'lim muassasalari qatorida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va O'zbekiston Milliy universiteti yetakchilik qildi. Yo'nalishlar orasida esa “Davolash ishi”, “Iqtisodiyot” hamda “Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili” yo'nalishlariga qiziqish ko'p bo'lgan. Demak, yoshlar tanlovida tibbiyot, iqtisodiyot va xorijiy tillar hanuz yuqori o'rinda. Bu esa aynan mana shu yo'nalishlarda ballar keskin ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Xususan, bir yo'nalish va bir OTM misolida ko'rib chiqsak, Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filialida joriy yili:

➤ Davolash ishi yo'nalishi grant o'tish bali – 186,4, kontrakt o'tish bali – 178,4 ball bo'lgan bo'lsa, o'tgan yili mos ravishda grant o'tish bali – 176,2, kontrakt o'tish bali – 159,6 ball bo'lgan.

➤ Pediatriya yo'nalishi grant o'tish bali – 184,6, kontrakt o'tish bali – 177,2 ball bo'lgan bo'lsa, o'tgan yili mos ravishda grant o'tish bali – 171,1, kontrakt o'tish bali 154,2 ball bo'lgan.

➤ Stomatologiya yo'nalishi grant o'tish bali – 185,5, kontrakt o'tish bali – 177 ball bo'lgan bo'lsa, o'tgan yili mos ravishda grant o'tish bali – 171,6, kontrakt o'tish bali – 154,2 ball bo'lgan.

Biroq qabul siyosatida axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt yo'nalishlari bo'yicha davlat grantlarining 35 foizga oshirilgani ayni shu yo'nalishlarga zamon talabining ortayotganini anglatadi.



Istiqlol yillarida

DAVLAT – HUQUQ –
QONUNCHILIK TIZIMINING
MOHIYATI VA AHAMIYATI

Insoniyat tarixida davlat–huquq–qonunchilik tizimi tushunchalari o'ta murakkab bo'lsa-da, odamlarni o'ziga jalb etib, qiziqitirib kelgan. Aslida aynan shu uch muhim tushuncha zamirida inson uchun yaxshi yashashning formulasi yotadi. Shu bois odamlar mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglashga tinimsiz intilib kelishadi. Qaysiki zaminda ushbu ustuvor tushunchalarning muvozanati ta'minlansa, o'sha yerda hamjihatlik, osoyishtalik va farovonlikka erishilishini mo'ysafid tarixning o'zi isbotlagan.

Zotan, bugun Yangi O'zbekistonda ham o'tgan o'n yil mobaynida davlat – huquq – qonunchilik tizimi tushunchalari davlat xizmatchilari, fuqarolik jamiyati institutlari va jamiyat a'zolari tomonidan mantiqan idrok etilib, mazmuni anglanib, amaliy ahamiyati ortmoqda. Jamiyat a'zolari yagona maqsad yo'lida birlashib, umume'tirof etilgan xalqaro tajribadan andoza olib, adolatli va manfaatli milliy huquqiy tizimni barpo etmoqda. Mazkur keng ko'lamli jarayon mamlakatimizda "Konstitutsiyaviy islohotlar" deb atalmoqda. Uning arxitekturasini "inson – jamiyat – davlat" mantig'i asosida qurilmoqda. Chunki "inson huquq va erkinliklari yetakchi o'rinni egallab, davlat va jamiyat boshqaruviga jamoat tashkilotlarining ham keng jalb etilayotgani hamda davlatning ularning har ikkisi oldida mas'ulligi oshirilayotgani mazkur Konstitutsiyaviy islohotlarning asosini tashkil etmoqda.

To'g'ri, mustaqillikka erishilgach, davlat – huquq – qonunchilik tizimi shakllandi. Biroq u respublikamizdagi barcha oila va odamlarning ongi hamda hayot tarziga bugungi darajada kirib bormadi. Ya'ni tegishli huquqiy mexanizmlar yaratilmadi va bori ham talab darajasida ishlamadi. Muhimi, davlat xalq bilan muloqot qilmadi, uni eshitmadi. Natijada xalq bilan davlat o'rtasida "muayyan formal masofa" paydo bo'ldi. Uning ilmiy asosi yaratilmadi. Faqat siyosiy nuqtayi nazardan yondashilgani bois davlat-huquq qonunchilik tizimi formal ahamiyat kasb etdi.

YANGI O'ZBEKISTONDA
yoxud uning bir hudud

Keyingi to'qqiz yil davomida "davlatning xalq bilan muloqoti", "xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi", "inson qadrligining ulug'ligi" kabi huquqiy mexanizmlarning ilmiy asosi yaratilib, ular qog'ozdan amaliy harakatga ko'chdi. Shaxsiy manfaat bilan jamiyat va davlat manfaati o'zaro uyg'unlashdi. Bu esa hayotda o'z amaliy natijasini bera boshladi.

IJODIY YONDASHUV
NATIJASI

Eng aziz va eng ulug' bayramimiz – Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida ko'nglimda bir maqola yozish fikri tug'ildi. Ziyoli sifatidagi burchdorigim va mas'ulligim menga tinchlik bermadi. Xayolimda yozilajak maqolada o'zimcha nimalarga e'tibor qaratishim haqida o'yladim. Ijodning har qanday turida tabiiylik, oddiylik va hayotiylik uni ta'sirchan va mazmunli, xalqchil qilishi ma'lum. "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan yangi ta'sirchan shiorni ko'rib, fikrim tiniqlashdi. Maqola yo'nalishi aniq bo'ldi.

Balandparvoz gaplar, mavhum hamda zerikarli fikrlarga ehtiyoj bo'lmadi. Masalaga ilmiy-ijodiy yondashish, real voqea va hodisalarni uning bevosita ishtirokchilaridan eshitish hamda uni bor holicha qog'ozga tushirish ancha samimiy, rost yoxud amaliy chiqishi ma'lum bo'ldi. Mehnat ta'tilidan foydalanib, Samarqand viloyatining bugungi kunda tashkil topganligining 50 yilligini nishonlayotgan, o'zim tug'ilib o'sgan Nurobod tumanida bo'lib, jarayon bilan tanishishga muvaffaq bo'ldim. Turli soha odamlari bilan hech bir ogohlantirishsiz, norasmiy, samimiy va dilkash suhbat, gurunlar asosida davlat – huquq – qonunchilik tizimi haqidagi tasavvurlaridan voqif bo'ldim. Aytganimdek, ijodiy yondashib qog'ozga tushirdim. Va sizga ham ilindim.

NURLI MASKAN

Davlat tomonidan Nurobod tumaniga qaratilayotgan katta e'tibor hamda mahalliy xalqning fidokorona mehnati bois bugun hudud ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanmoqda. Muhimi, tuman aholisi, Prezidentimiz boshchiligidagi xalq xizmatidagi davlat boshqaruvi yo'lga qo'yilganligini anglab, islohotlar jarayonida faol ishtirok etmoqda. Davlat tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish orqali tuman qiyofasining ko'rkamlik kasb etayotgani, barcha qishloqlardagi ichki yo'llarning asfaltlashtirilayotgani, ko'plab zamonaviy ijtimoiy obyektlarning qurilib foydalanishga topshirilayotgani, deyarli barcha mahallalar, hatto borish qiyin bo'lgan qishloqlarda ham tungi yoritish chiroqlari o'rnatilgan zamonaviy yo'lakchalar barpo etilayotgani yoxud tumanda sog'liqni saqlash, ta'lim, aholini ish bilan ta'minlash, sport, turizm, yoshlar, mahalla, ijtimoiy himoya, kambag'allikni qisqartirish masalalari borasida yaratilayotgan ulkan sharoitlar har bir qishloq va oila hamda fuqaro ongiga keng qamrovli islohotlar yetib borayotganini bildiradi. Buning ma'nosi shuki, davlat o'z vazifasini inson qadri uchun yo'naltirib, tuman aholisi uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. O'z o'rnida aholi ham o'z huquqlarini anglab, undan foydalanish bilan birga, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini ham idrok etib, unga rioya qilishayotganini e'tirof etish o'rinli.

Nurobod tumanida respublikamizdagi ko'plab hududlar havas qiladigan jihatlar mavjudligini ham e'tirof etmaslik adolatdan emas. Ya'ni davlatimiz tomonidan qonunchilik tizimining shakllanishi va hududlarni rivojlantirish natijasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Birinchidan, Prezidentimizning 2026-yil 24-iyundagi "Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha respublikamizdagi 8 992 ta mahalla raisini 11 ta asosiy yo'nalish bo'yicha reyting tizimi asosida baholash tizimi joriy etilgan. Bunda respublika bo'yicha faoliyati eng namunaviy TOP-100 ta mahalla aniqlangan. Unga Samarqand viloyatidan 10 ta mahalla eng namunaviy mahalla sifatida kiritilgan bo'lib, shundan 5 tasi Nurobod tumanidagi Lolazor, Sharq yulduzi, Po'latchi, Oqsoy va Bulqoboshi mahallalari sanaladi.

Ikkinchidan, davlatimiz rahbarining 2026-yil 8-avgustdagi Tibbiy hamda sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish maqsadida Prezident qarori loyihasi Hukumat portalida e'lon qilingani fikrimizning isbotidir. Unga ko'ra, loyihadagi Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi 470 gektar yer maydonida viloyat boshqaruvidagi "Nurbuloq" sanatoriy-kurort shahri tashkil etish taklif etilgani biz

nurobodliklar uchun katta quvonchli voqea va mas'uliyat hamdir. Hali davlat tomonidan qo'yilgan vazifalarning ijrosi bo'yicha qilinadigan ishlar ko'p. Muhimi, odamlarda ertangi kunga ishonch va shukronalik hissi shakllanmoqda. Bu esa boshlangan keng qamrovli islohotlarning samarasini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Erkin ABDUSALOMOV, Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Nurobod tuman kengashi raisi, Xalq ta'limi a'lochisi:

– Bugun vijdonan aytganda, yashaydigan zamon keldi. Davlat tom ma'noda insonni qadrlashga e'tibor qaratmoqda. Tumanimizdagi maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib, maktab o'quvchisi-yu yoshlarning barcha toifasi, ta'lim va fan sohasi xodimlari, xullas davlat barcha fuqarolarni o'ylayapti va ular uchun sharoit yaratib bermoqda. So'ngi yillarda nurobodliklarning davlatga ishonchi yil sayin ortib, davlat bilan munosabati ijobiy tomonga o'zgarmoqda. O'ylab ko'ring, bir vaqtlar Nurobod tumani nafaqat viloyatimizda, balki respublikamizda eng muammoli va iqtisodiy haminqadar hudud edi. Bugun esa oqilona davlat siyosati tufayli rivojlanayotgan maskanga aylanmoqda. Chunki davlatimiz rahbarining "inson qadri ulug'" degan chaqirig'i oriyat va g'ururi baland dashtliklarning g'ayrat-shijoati hamda mas'uliyatini oshirmoqda.

Aytmasam bo'lmaydi, biz jamoat tashkilotlariga e'tibor ham yuzaki edi. Prezidentimiz tashabbusi bilan tumanimizdagi barcha jamoat tashkilotlari mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni xonadonma-xonadon chiqib o'rganib, tahlil qilib, ularni hal qilish jarayoniga faol jalb etildi. Bu esa nodavlat tashkilotlarining mas'uliyat va faolligini oshirib, yangicha ishlashga o'rgatdi. Jamoat tashkilotlari – davlat organlari – xususiy sektorlar bilan amaliy hamkorlikka zamin yaratdi. Yana bir jihati, tumandoshlarimiz bizning jamoat tashkiloti sifatida qanday huquq, erkinlik va vakolatimiz borligini bilib, faoliyatimizdan xabardor bo'lib, amaliy hamkorlik qila boshladi.

Tumanimizda maktabgacha ta'lim muassasalari 10 yil avval 5 tagina edi, qamrov 3,5 foizni tashkil etgan. Bugunga kelib ularning soni 29 taga yetdi, qamrov esa 63,6 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, atigi 10 ta maktab o'z sport zaliga ega edi, bugun esa 37 ta maktab zamonaviy sport zaliga ega. Tumanimizda bugungi kunda 79 ta maktab, 2 ta texnikum, 1 ta ixtisoslashgan maktab-internat yoshlarga ta'lim va tarbiya berib kelmoqda.

Tashkilotimiz fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi imkoniyatlarini tumanimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida ham namoyon etib kelmoqda. Xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning sog'lig'ini tiklash, uy-joylarini ta'mirlash va yangi



DAVLAT — HUQUQ — QONUNCHILIK

misolidagi amaliy ifodasi

uy-joy bilan ta'minlash, kam ta'minlangan oilalar farzandlarining yozgi orom-gohlarda bepul dam olishini tashkil etish, nuroniylarning respublikamizdagi tarixiy maskanlarga bepul ziyoratlarini uyushtirish borasida qator xayrli ishlar amalga oshirilmogda.

Shuningdek, fan va ta'lim sohasi xodimlari hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xodimlarni sanatoriylarda sog'lomlashtirishga ko'maklashish, milliy reytingda yuqori natijalarga erishgan o'qituvchilar, maktab direktorlari va tuman xalq ta'limi metodistlarining O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi sanatoriylarda bepul sog'lomlashtirishini tashkil etish kabi savobli va euzu ishlar ham izchil amalga oshirib kelinmogda.

Rohila QILICHEVA,
shifokor, "Shuhrat" medali sohibi,
Sog'liqni saqlash a'lochisi:

– Nurobod tumaniga 1978-yili kelganman, o'shanda turmush o'rtog'imni yangi tashkil etilgan rayonga ishga taklif etishgan, men esa yosh kelinchak edim. Ochig'i, kelgan paytim "Shu cho'l-u biyobonda ham yashab bo'larkanmi?!" deb rosa yig'laganman. Shu bois Nurobod tumanining kecha va bugunini mehnat faoliyatim hamda hayotiy tajribam orqali yaxshi bilaman. Akusher-ginekolog sifatida aholi tomonidan mutaxassisligimga talab bo'ldimi yoki ular meni qabul qilishdimi, taqdir-nasibami, ishqilib tumanga o'rganib, moslashib ketdim. Xudoga shukr, ko'pchilik hurmat bilan "do'xtir opa" deb murojaat qiladi. Nurobod eli meni qabul qilgani va men ham ularni yaxshi ko'rganim bois kam bo'lmadim. Bugun 4 nafar farzandning onasi, 10 nafar nevara va 2 nafar chevaraning buvisiman. Soham bo'yicha qator shifokorlarning ustoziman. Hali ham xalq xizmatidaman.

Davlatimiz Nurobodning tuman sifatida shakllanib, bugungi darajaga yetishishiga hamisha katta yordam berib keldi. Ayniqsa, keyingi yillar amalga oshirilgan ishlarni aytmasam bo'lmaydi. O'zim ishlagan tuman markaziy shifoxonasi "falaj" holatida edi. Binolarimizning holati ancha ta'mirtalab bo'lib qolgan, moddiy-texnik baza ham eskirib ketgan edi. Vrachlar va soha vakillari-ning oylik maoshlari hamda ularga e'tibor ancha kam edi. Bu esa, tabiiyki, tibbiy xizmat sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatardi. Shifokor va hamshiralar ham bir amallab ish vaqtini tugatib, boshqa sohalarda ham mehnat qilib o'z moddiy ahvolini yaxshilash payida bo'lardi. O'z o'rnida bunday holat ko'pchilik kasallarni boshqa tumanlarga yoki Samarqand shahriga borib muolaja olishga majbur qilardi. Kadrlar masalasida ham muammo yuzaga keldi, yosh kadrlarning ishga kelishi ancha kamaydi.

Prezidentimiz boshchiligidagi mamlakatimizda xalqning dardini eshitish, uyma-uy kirib muammo va ehtiyojlari-

ni o'rganish natijasida tub islohotlarni amalga oshirishga kirishildi va tibbiyot sohasiga ham davlat miqyosida e'tibor qaratildi. Davlat g'aznasidan katta budjet mablag'lari ajratilib, muammolar birin-ketin hal etila boshladi. Soha vakillari ko'nglida shukronalik kayfiyati oshib, ishonch tuyg'ulari ortdi. Sababi, tibbiyot yo'nalishida ulkan modernizatsiyalashuv jarayoni boshlandi. Shifoxonamizda tug'ruqxona, xirurgiya, kardiologiya, terapiya, tez yordam, reabilitatsiya bo'limlari kengaytirilib, to'liq yangi texnologiyalar bilan jihozlandi. Tumanimizda 24 ta yangi, zamonaviy qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar qurib ishga tushirildi. Moddiy-texnik baza to'liq yangilandi. Laboratoriyalar eng so'nggi tibbiyot texnologiyalari bilan jihozlandi. Sohamiz to'liq raqamlashtirilmogda. Kadrlar masalasiga e'tibor qaratilayotir. Aksariyat operatsiyalar o'zimizda amalga oshirila boshlandi. Tumanimizdan 5 nafar vrach o'z sohasi bo'yicha Xitoyga 2 haftalik malaka oshirishga yuborildi. Noshukrlik bo'lmasin, gohida "Qani endi yosh bo'lsam-u, o'z sohamda hammasini boshidan boshlasam..." deb ham o'ylab qolaman.

Tumanimizda xotin-qizlarga e'tibor ham ortib bormogda. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, aholi orasida qiz bolalarning ta'limiga e'tibor kuchaygan. Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlardan unumli foydalanilmogda. Xotin-qizlar sog'ligiga munosabat ham ijobiy tomonga o'zgargan. Tibbiy ko'riklar muntazam amalga oshirilmogda. Erta nikoh va qarindoshlik asosidagi nikohlarga qarshi ham qonun talablari asosida qat'iy kurashmogdamiz. Jamoatchilik bilan hamkorlik asosida oilaviy ajrimlar sonining ham kamayishiga erishilmogda. Xotin-qizlar uchun tuman hokimligi yordami asosida madaniy va ichki turizm masalalarida ham ijobiy ishlar amalga oshirilmogda.

Otabek TILAVOV,
"SobirSoy" fermer xo'jaligi rahbari:

– Biz tadbirkorlar uchun davlatimiz tomonidan yaratilgan huquqiy imkoniyatlardan keyin ishlamaslik va harakat qilmaslikning iloji yo'q. Davlat bergan sharoit va imkoniyat uvol bo'ladi. Uvol esa yomon.

Fermer xo'jaligimiz chorvachilik, dehqonchilik va tuyachilikka ixtisoslashgani uchun "Eko Zamzar" kafesini ham oilaviy tadbirkorlik subyekti sifatida 2020-yili xalqimizga sifatli xizmat ko'rsatish uchun ochganmiz. Bu yerda barcha taomlar o'zimizning tabiiy mahsulotlardan tayyorlanadi. Ayniqsa, tabiiy bug'doy unidan tayyorlanadigan va uzoq saqlanib, qotsa-da, o'z xususiyatini yo'qotmaydigan nonlarni poytaxtdagi tanish do'stlarim ham xush ko'rishadi. Milliylik bilan tabiiylikni uyg'unlashtirganimiz uchunmi, mijozlarimiz ko'paysa-ko'paymogda, lekin kamaygani yo'q.

Tadbirkorlik uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanish natijasida so'nggi bir oy ichida "Eko Zamzar" kafesi bazasida "DAVO ZAMZAR" radonli suvi yordamida 17 dan ortiq turdagi muolajalarni amalga oshirishga mo'ljallangan, 60 o'rinli xususiy sihatgohni qurib, foydalanishga topshirdik. Natijada yana 30 ta yangi ish o'zni yaratildi. Bugungi kunda ushbu sihatgoh ham aholiga munosib xizmat ko'rsatib, xalqimiz e'tiborini qozonmogda.

Asosiy maqsadimiz faqat mahsulot sotib, foyda olish emas. Oilamizda o'rganganimizdek, odamlarga yaxshilik qilish, ularning roziligini olish va shu orqali baraka topish – hayotiy mezonimiz. Tabiiyki, shaxsiy maqsadlarimizning Prezidentimiz olib borayotgan siyosat mazmun-mohiyatini ifodalovchi "inson qadrini ulug'lash" tamoyiliga uyg'unligi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarga oz bo'lsa-da hissa qo'shayotganimiz bizni quvontiradi. Tadbirkor sifatida mas'uliyatni his etib, Nurobod tumani miqyosida davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan saxovat, xalq farovonligini ta'minlash, ijtimoiy obyektlar qurilishi sohasida amaliy hamkorlik qilyapmiz. Natija esa yomon emas. Mas'uliyat va saxovatimiz faoliyatimizga baraka keltirmogda. Turkiya, Saudiya Arabistoni, Rossiya(Dog'iston) Qirg'iziston kabi davlatlardan do'stlar orttirib, hamkorlik qilyapmiz. Jami ellik nafar odamni ish bilan ta'minlaganmiz. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan uchrashib, bizni yanada ruhlantiruvchi huquq va erkinliklar berilayotganini aytgani ko'nglimizni tog'dek ko'tardi. Yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilik, degan hayotiy haqiqat bizni faollikka undaydi.

Qamariddin ILYOSOV,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti bitiruvchisi:

– Nurobod tumanida tug'ilib, o'sdim. Maktabni bitirib, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetiga davlat granti asosida o'qishga o'tdim. 2-kursga o'tganimda davlatimiz tomonidan sun'iy intellekt, robototexnika, dron va muhandislik texnologiyalari bo'yicha e'tibor va imkoniyatlar yaratilayotgani meni tamoman o'ziga qiziqtirib qo'ydi. Va bu qiziqishim ta'lim yo'nalishimni o'zgartirishimga sabab bo'ldi. Puxta tayyorgarlik ko'rib test sinovlari asosida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universitetiga davlat granti asosida qabul qilindim.

Talabalik davrimda ham robototexnika va dron texnologiyalari yo'nalishidagi respublika va xalqaro miqyosdagi ko'rik-tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdim. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Mirzo



Eshmuhammad QODIROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

Ulug'bek vorislari" respublika tanlovida ikki karra g'olib bo'ldim. Qayerda bo'lsam ham tug'ilib o'sgan tumanim bilan, tahsil olayotgan soham bo'yicha munosabatni uzmadim. Sun'iy intellekt bo'yicha har xil tadbir va ko'rik-tanlovlarda qatnashish uchun borib turdim. Maqsadim tumanimizdagi iqtidorli va bilimdon yoshlarining innovatsion g'oya hamda tashabbuslari qo'llab-quvvatlashiga hissa qo'shishdir.

Niyat to'g'ri bo'lsa, amal ham yaxshi bo'ladi, degani rost ekan. Universitetni bitirishim arafasida Nurobod tumani hokimligida soham bo'yicha mutaxassisga ehtiyoj borligini aytib, meni tuman hokimi suhbatga chaqirdi. Suhbatimiz juda samimiy va iliq kechdi. Tuman hokimining bu darajada sun'iy intellektga qiziqishi va uning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini tushunib yetishidan juda quvondim. Fikrlarimiz bir-biriga zid bo'lgan holatlar ham bo'ldi. Lekin hokimning mas'uliyatli ishidan ortib, mendek bitiruvchi bilan qizg'in suhbat qurishi, o'z taklif va g'oyalarimni aytishimga turtki bo'ldi.

Umuman, bu suhbat menga yosh mutaxassis, bitiruvchi sifatida juda ko'p narsa berdi. O'z sohamning davlatimiz uchun zaruratini, ayniqsa, poytaxtning nufuzli oliy ta'lim maskanida olgan nazariy va amaliy bilimlarimni Nurobodning uzoq qishloqlaridagi yoshlar bilan bo'lishishim kerakligini his qildim.

XOTIMA

Guvohi bo'lganingizdek, davlat – huquq – qonunchilik tizimi masalasi Yangi O'zbekistonning bitta tumani misolida odamlar ongi, xulq-atvori, hayoti, oilasi, kasb-u kori, mehnat jamoasi hamda hududida yangi real voqelikka aylanib bormogda. Xalq bu tushunchalarning mazmunini anglash, his qilish va amal qilish ko'nikmasiga ega bo'lish orqali manfaat topadi. Galdagi vazifamiz jamiyat a'zolari ongi va xulq-atvorida mazkur tushunchalarning yangicha mazmun va ahamiyatini muntazam ravishda to'g'ri shakllantirib borishda ko'rinadi. Ma'lum bo'ladiki, davlatimiz tanlagan ushbu yo'l haq hamda istiqbollidir. Demak, Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

Yo'l ocherki



Dunyo kezishning gashti o'zgacha, buni sayyoh bo'lib, qaysidir xorijiy davlatga borganingda bilasan, yana ham teranroq his qilasan! Eshitganing, tasavvuring haqiqatga aylanadi. O'zbekistonga qiziqish bilan qarab, uning ko'hna va zamonaviy shaharlariga qadam ranjida etayotgan chet ellik sayyohlar qanchalik ko'p bo'lsa, O'zbekiston fuqarolarining Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo, MDH, Yevropa davlatlariga borib qaytayotgani ham quvonarli voqea, aslida. Demak, o'zbek xalqi vakillarining moddiy imkoniyatlari kengayib, hayot tarzi yaxshilanmoqda.



Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning yanvar–iyun oylarida O'zbekistonga turizm maqsadida 6,5 milliondan ziyod xorijiy fuqaro tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 million yoki 24,9 foiz oshganidan dalolat beradi. Xuddi shunday ma'lumotni yurtdoshlarimiz hayotiga nisbatan qiyoslaydigan bo'lsak, 2025-yili sayyohlik maqsadi bilan xorijga chiqqan vatan-doshlarimiz soni 7,6 million kishi bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 22,2 foiz oshgan. Sayyohlikning har ikki turi ham O'zbekiston uchun, uning taraqqiyoti uchun, yurtdoshlarimiz uchun manfaatlidir!

Yurting, eling qadr-u qimmatini chetga chiqqan-ingda bilasan! Yurak qo'ring, ko'z nuringga, butun vujudingga singgan Vatan tuyg'usi, uning sog'inchi har lahzada seni chulg'ab oladi. Beixtiyor hassos qalb egasi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O'zbekistonni?” degan hayqirig'i yodingga tushadi:

*Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.
Nechun Vatan deya yer-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho!*

Qaysi davlatga bormang, beixtiyor O'zbekistonni o'sha joy bilan qiyoslaysiz. To'g'ri, har bir mam-lakatning o'ziga xos ustun jihatlari bo'lishi mumkin. Masalan, zamonaviy shahar qurilishi, tabiiy resurslar-niing bisyorligi, texnologiyaniing yuqoriligi, sayyoh-lik obyektlarining ko'pligi va ular uchun yaratilgan sharoit nuqtayi nazaridan qaralsa, “Qoyil!” devora-siz. Ammo Markaziy Osiyo davlatlari orasida har to-monlama rivojlanishning oydin yo'liga chiqib olgan O'zbekistonning ham ijobiy jihatlari tan olingan. Shoir Hamid Olimjon kuylab o'tganidek, “O'zbekiston deya atalur, uni sevib el tilga olur!”.

BIR LITR QAYNOQ SUV 112 MING SO'M!

2022-yilning 27-mayi. Turkiyaning qadimiy va navqiron Istanbul shahridagi mehmonxonalardan bi-riga joylashib, shom cho'kayotgan pallada chog'roq-qina qahvaxonaga kirdik, choyxo'rlik qilmoqchimiz: qo'limizda quruq meva, ko'k choy. Yemakxonaga odimlashimiz bilan yoshgina turk qizi peshvoz chiq-di. Talabimizga binoan, chamasi o'n daqiqalar o'tib, u biz uzatgan quruq choyni temir choynakka solib, oldimizga qo'ydi. Mayiz, yong'oqdan qizga uzatdik, u labida tabassum bilan o'z tilida O'zbekiston mevalari-

ni maqtadi. Choyini “maydalab” ichdik, mezbon qiz bilan imo-ishorada suhbatlashganday bo'lib, bir soat-cha o'tirdik. Turk tili o'zbekchaga o'xshash emasmi, bir-birimizni tushunish qiyin kechmasdi. Hisob-kitob qilish mavridi keldi, sotuvchi xizmat narxi ikki yuz lira bo'lganini aytdi. Ajablandim. Ikki yuz liraning so'mga nisbatan qiymati qancha ekanini bilmasam-da, qimmat-roq tuyuldi. Buning ustiga biz undan bir litr qaynoq suv oldik, xolos.

Ertasi kuni o'zbekistonlik qirq to'rt kishidan iborat sayohatchilar guruhi bir joyga to'plandik. Kappadoki-ya shahriga yo'l olish arafasida men rus tilida “qiyib” gaplashadigan gidga yuzlandim:

– Ikki yuz lira necha dollar bo'ladi?

U ikki yuz turk lirasining o'n ikki dollarga teng eka-nini aytganida, to'g'risi, tepa sochim tikka bo'lib ketdi. Shuncha dollarning so'mdagi qiymati o'sha kezda bir yuz o'n ikki ming so'mga teng kelardi. Buni qarang-a, biz 112 ming so'mga bir litr qaynoq suv xarid qilibmiz. Shunaqasi ham bo'larkan-da! Ko'z o'ngimdan O'zbek-istonning saranjom-sarishta, fayzli, xizmatda yurib, mulozamati o'miga qo'yadigan xodimlari, oshxo-na-yu choyxonalari o'ta boshladi: ba'zilarida hattoki choy tekin! Nima bo'lganda ham, yurt kezsang, Vatan-ni qo'msaysan, uni o'sha davlatning turli tomonlari bilan taqqoslaysan va beixtiyor shoir Muhammad Yusufning ko'nglidan otilib chiqqan “O'zingdan qo'ymasin, xalqim!” degan satrlari tilingga ko'chadi...



SANKT-PETERBURGDAGI O'ZBEGIMI!

Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida dunyoning mashhur muzeylari o'ntaligiga kirgan “Ermitaj” bor. Uch qavatli bu koshona go'yoki “labirint”, aylanib-ay-lanib, tomosha qilib chiqqan zalga yana kirib qolishi-ngiz mumkin. Muzey o'rta asrlarda yevropalik ras-somlar chizgan kartina hamda mo'jazgina haykallarga to'la. Ma'lumotlarga qaraganda, muzey tarixi 1764-yili imperator Yekaterina II ning 315 ta san'at asarini berlinlik savdogardan sotib olishi va xususiy kollek-siya yaratishi bilan boshlangan. Fransuz tilidan tarji-ma qilinganda “ermitaj” so'zi “yakka joy, boshpana” degan ma'noni anglatadi. Muzey ekspozitsiyalarining asosiy qismini qirolicha Yekaterinaga tegishli noyob jamlanmalar tashkil etadi. Keyinchalik boshqa davlat a'yonlari ham unga topgan-tutganini in'om qilishgan. Muzeyga faqat o'z davrining kiborlarigina kira olardi. 1852-yili qaytadan bunyod etilgach, ketgan sarf-xara-jatni qoplash uchun bu makon eshiklari ilk marta ham-ma uchun ochildi.

Muzey Neva daryosi bo'yida barokko uslubi-da yonma-yon qurilgan besh(qishki saroy, kichik,



katta, yangi Ermitaj, teatr) ulkan binoning bir-bi-riga uyg'unlashgan ansamblidan iborat bo'lib, ulug'vor qiyofasi bilan har qanday kishini o'ziga rom etadi. Ekspozitlar saqlanayotgan 350 ta san'at asari darajasidagi zal mavjud. Ermitajga har yili o'rtacha 5 milliondan ziyod mehmon tashrif buyuradi.

Ochig'i, Sankt-Peterburg qadimiy, sokin va tinch shahar. Sayyohlar e'tiborini o'sha mashhur “Ermitaj” muzeyi tortmasdan qolmaydi. Shahar ko'chalari ravon, tekis, tirbandlik ham yo'q emas. Cho'g'dek chex tram-vayi tekis “suzadi”. Yo'lovchilarni manziliga yetkazib qo'yayotgan yana bir transport turi – metropoliten stan-siyalari tongdan yarim tunga qadar gavjum. Eng chuqur–86 metr chuqurlikdagi “Admiral'skaya” stansiyasi-da biri kirib, biri tushayotgan yo'lovchilar. Kim bilsin, ular orasida sayyohlar, muhojirlar qancha?

Sochi oppoq rus millatiga mansub mo'ysafid olomon orasida bir amallab bekatzga chiqdi. Salonda yo'lovchi u qadar ko'p emas, ammo o'rindiqlar band. Otaxon bir chekkada mung'ayib turardi. Kuzataman, rus yigit cholni ko'rmagandek ko'zini yumib oldi. Haligi kishi oyog'i toliqqanidan tanasining bir tomoni og'irligini ikkinchi tarafga yuklagandek bo'lib, qiyshayibroq vagonning tepa tutqichidan ushlab oldi. Unga rahmi keldi chog'i, bir ayol nariroqda bo'lsa ham, o'rindan turib, yo'lovchining qo'ltig'idan tutib, o'rindiqqa joy-ladi. Qarasam, yuz-ko'zidan odamiylik yog'ilib tur-gan bu ayol o'zbek! Ha, o'zbek qayerda bo'lmasin, qay manzilda yashamasin, o'zining sal ildizlarini qadrlay-di, insoniyligini namoyon etadi. O'zbekona odamiylik, o'zbekona qadriyatlar faqat bizda, uni boshqa yurtda topaman, deb ovora bo'lmang!

3 MILLION 700 MING QAYDA-YU, 38 MILLION QAYDA?

“Toshkent – Tbilisi” aviareysi roppa-rosa uch soat-u yigirma daqiqa o'tib Tbilisi aeroportiga qo'ndi. Sayyohlar orasida nafaqat Toshkent, balki turli viloyat-lik yurtdoshlarimiz bor. “Turpaket”ning to'rt kuni Tbi-lisi, to'rt kuni Batumiga mo'ljallangan. Gruziyaning g'arbiy qismi, ya'ni Qora dengiz sohillari subtropik iqlimga ega. Dunyo sayyohlari ana shu ulkan dengiz sohillarida dam olish uchungina bu manzilga intiladi.

Yurtodoshlarimizning Gruziyaga sayohat qilib, havo almashtirib kelishi xususida so'z ketganda, avvalo, O'zbekistonning mazkur davlat bilan do'stona mu-nosabatlari tobora qalinlashib borayotganini ta'kidlab o'tish o'rindirli. Keyingi yillarda savdo ko'rsatkichlari va hamkorlik loyihalari soni tobora ortib bormoqda. 2023-yilda tovar ayirboshlash 23 foizga oshdi. Gruzi-yaning mashhur brendi – Bakuriani tog'liklari muzla-gan cho'qqisidan eritib olinadigan “Borjomi” mineral suvi bizda shifobaxsh ichimlik deya iste'mol qilinadi. Ayniqsa, sayyohlikni yo'lga qo'yish bo'yicha ham-korlik kuchayib boryapti. Gruziya transport departa-mentidan berilgan ma'lumotga ko'ra, 2023-yilda Gru-ziyaga 10 million sayyoh borgan bo'lsa, shundan o'n

foizini o'zbekistonliklar tashkil etgan. 2025-yilning yanvar–iyul oylarida Gruziyaga 9,6 ming nafardan or-tiq O'zbekiston fuqarosi tashrif buyurgan.

Tbilisida Toshkentning Eski shaharidagi kabi bun-dan bir asr muqaddam qurilgan ko'hna hovlilar mavjud. Uy egalari eskirib ketgan boshpanada yashash uchun turli moslamalar o'rnatganmi-yey... Omonatgina turgan hovlilarda yoshi bir joyga borib qolgan chol-kampir-lar yashaydi. Ajablanarlisi, shahar ko'chalarida asosan yoshi ulug', qarib-qartaygan, asoga suyangan kishilar. Bola yetaklab yurgan yoki go'dagini aravachaga joyla-gan yosh onalar “anqoning urug'i”. Bu nimadan dalo-lat berar ekan, degan savol ko'ngildan o'tadi, albatta. O'zbekistonlik sayyohlarga Tbilisi tarixi, geografik joylashuvi, san'ati va madaniyati haqida ma'lumot yet-kazib berishga mas'ul gid – Natalya Pavliashvili xuddi shu narsani sezgandek, so'z boshladi:

– Gruziyada tug'ilish juda kamayib ketgan. So'ng-gi ma'lumotlarga qaraganda, uning umumiy aholisi 3 million 700 ming kishini tashkil etmoqda. Shundan o'n ikki foizi, hattoki muhojirlar hissasiga to'g'ri keladi. Hukumat tomonidan mahalliy aholi sonini ko'paytirish choralari ko'rilyapti. Balki yaqin o'nyillikda gruzin millatiga mansub tub aholi soni oshib qolar...



Ha, bu taxmin, orzu, niyat. Gruziya aholisining ko'payishi yoki kamayishini vaqt ko'rsatadi. Beix-tiyor O'zbekiston aholisi yildan yilga oshayotgani ko'ngildan o'tadi. Eng so'nggi ma'lumot: 38 million 595 ming! Gid bergan ma'lumot har bir o'zbekiston-lik sayyohni shukronaga undaydi! Hech bo'lmaganda, har bir o'zbek oilasi kamida ikki farzandni voyaga yet-kazadi, el qatoriga qo'shadi, kasb-kor, hunar egallashi uchun imkon yaratadi. Milliy statistika qo'mitasidan berilgan ma'lumotga ko'ra, 2026-yilning yanvar–iyun oylarida 373 389 go'dak dunyoga kelgan. Hududlar kesimida eng ko'p tug'ilish Samarqand viloya-ti hissasiga to'g'ri kelib, mazkur hududda olti oyda 46 436 chaqaloq tug'ilgan.

Farzandlarimizning jismonan va ruhan sog'lom ulg'ayishi, mustaqil hayotga munosib tayyorlanishi uchun yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar qancha? Mana, statistika: so'nggi 2025-2026-o'quv yilida 59 ta yangi maktab ish boshladi. Umumta'lim maktablari soni 10 225 taga, o'quvchilar soni 6,7 mil-liondan oshdi. 2025-2026-o'quv yilida 726 231 nafar o'quvchi, jumladan 209 280 nafari onlayn shaklda 1-sinfga qabul qilindi. Ularning barchasi Prezident sovg'alari bilan ta'minlandi. Yangi 2026-2027-o'quv yili O'zbekiston mustaqilligining 35 yillik tantanalari bilan o'zgacha ruh va kayfiyatda boshlanadi! Maktab-gacha ta'lim yo'nalishida qamrov 78 foizga, 6 yoshli bolalar qamrovi 98 foizga yetdi. 13 hududda 135 ta yan-gi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirilib, 16 820 ta qo'shimcha o'rin yaratildi. Bola-

lar musiqa va san'at maktablari, sport-sog'lomlashti-rish majmualari, “Barkamol avlod” maktablari... sanab adog'iga yetolmaydigan yana qancha ta'lim-tarbiya maskanlari bor yurtimizda! Bularning barchasi bola-jonlarimiz rizq-nasibasi, unib-o'sishi, hayotiy mo'ljal-ni to'g'ri olishi, sirasini aytganda, Yangi O'zbekiston-niing porloq istiqboli uchun!

KUALA-LUMPURDA POMIDOR, BODRING IZLAB...

Malayziya nomini eshitganda ko'z o'ngingizda quyuq o'rmoni, ko'ko'par binolari, hayratomuz sayyo-hlik obyektlari bilan tilga tushgan o'lka gavdalanadi. Bu davlatni “Ikkinchi Amerika” deb atashlari ham bejiz emas. U Singapur, Tailand davlatlari bilan che-garadosh. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Malayziyada 878 ta orol mavjud. Shundan 394 tasi yirik, qolgani kichik orollardir. O'zbekistonning mazkur mamlakat bilan diplomatik munosabatlariga 1992-yilda asos solingan bo'lib, o'tgan davr mobaynida tibbiyot, tu-rizm, ta'lim, biznes sohalarida ulkan investitsiya loy-ihalari amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda yurtdoshlarimizning bu davlatga, va aksincha, malayziyaliklarning O'zbekistonga sayyohlik, tadbir-korlik va boshqa ezgu niyatlarda kelayotgani e'tirofga sazovordir!

Malayziyaning “Batik air” aviakompaniyasi tasar-rufigadi “Toshkent – Kuala-Lumpur” aviareysida sak-kiz soatlik havo yo'lini bosib o'tgan o'zbekistonlik sayyohlarni mazkur davlat aeroportida mas'ul xodim-lar kutib olgan lahzada shom cho'kib qolgan edi. Uzoq yo'l, uzoq masofa. Yo'lovchilarga 0,5 litr ham chiqmaydigan baklajkada suv tarqatildi. Bir mahallik taom: guruchning yonida qovurilgan tovuq, yana nima-lardir. “O'zbekiston havo yo'llari” aviakompaniyasi samolyotlarida esa sizga oshni salati, noni, mevasi, deserti bilan keltirishadi. Oraliq vaqtlarda esa styu-ardessa sizga xohishingizga qarab, suv, sharbat, kola, fanta, choy uzatadi. Ha, solishtirsangiz, hattoki avi-ar-eyslar xizmatida ham tafovutni ko'rasiz. O'zbekiston vaqtidan uch soat ilgari yurishi bilan farqlanadigan Malayziyaning so'lim tabiati, ravon va keng ko'cha-lari, osmono'par binolari vatandoshlarimizni o'ziga rom etdi, albatta. Havo dim, harorat 43-44 darajadan kam emas, dengiz, o'rmon namligi bilan “qorishgan” issiqlik nafas olishni bir qadar qiyinlashtiradi. Xullas, subtropik zaminning yozi shunaqa bo'lar ekan.

Ertasi kuni sayyohlar atigi bir soatlik aviareysda Malayziyaning tillarda doston Langkavi shahriga uchdilar. Bu manzildagi yirik arxipelag joylashgan Andaman dengizi dunyo sayyohlarini ohanrabodek



Hulkar TO'YMANOVA,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist,
I darajali “Mehnat faxriysi”

o'ziga tortadi. Dengiz qirg'og'i qumlik, antiqa shakl-dagi chig'anoq va toshlarga to'la. “Chenang” plyaji-da xohlang, to'lqinlar uzra suzing, xohlang oftobda toblaning, xohlang kemalarda sayr qiling!

Hammasi a'lo, dengiz va o'rmon go'zalligi, asfalt yo'lda maymun, olmaxon, toshbaqa, ilonning sakrab va sudralib yurishi sizni yovvoyi tabiatga yaqinlashti-radi. Hayratingiz oshmay ko'rsin-chi! Malayziya sav-do do'konlarida, xalqaro aeroportida, mehmonxona, transport xizmatida yuksak texnologiya. Malay xalqi jilmayib, muomala madaniyatini “do'ndiradi”.

Har to'kisda bir ayb bor. Rivojlanishning “cho'qqisi”ga chiqqan diyor poytaxti – Kuala-Lumpur bozorida pomidor, bodring izlab topolmagan vatan-doshlarimiz kattagina hududni ishg'ol etgan markaziy supermarketga yo'l oldi. Eh-he, mahsulotning million-lab turi o'z xaridoriga muntazir! Sabzavotlar rasta-si ham to'la, ammo... xoh ishonang, xoh ishonmang, O'zbekiston bozorlaridagi kabi quyosh nuri singib pishgan qip-qizil pomidor yo'q! Sap-sariq, toshday qattiq pomidorni olgandan ko'ra qip-qizilgina “cherri” yegan afzal. O'zbek dehqoni yetishtiradigan “Orzu” bodringi o'rmda uzunchoq, shakli xuddi baqlajonga o'xshash, to'q yashil rang mahsulot sotilmoqda. Narxi ham bizniki bilan solishtirganda ancha qimmat!

Toshkentning meva-sabzavot, poliz mahsulotlariga to'lib-toshgan bozorlaridan aylanib-o'rgilsak arziydi! Sabzavotning xillari ko'pligidan yanglishib ketasiz: piyoz, kartoshka, pomidor, bodring, sabzi, baqlajon, bulg'or qalampiri, sarimsoqpiyoz, kabachka... Me-valar-chi? Soni emas, mazasini aytin! O'zidan ortti-rib, chet davlatlarga tonnalab eksport qiladigan o'zbek dehqonining joni omon bo'lsin-a! 2026-yilning dast-labki choragidagi ma'lumotga e'tibor qaratamiz: 454,5 million AQSH dollari qiymatidagi 489,5 ming tonnalik meva-sabzavot mahsuloti turli xorijiy davlatlarga eks-port qilindi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan ek-sport hajmi 5,6 foiz ko'p deganidir! Ha, bu haqiqat!

Imkoningiz bo'lsa, dunyo kezing, mufunkor o'lka-larga boring, rivojlanganligidan hayratga tushing! Dengiz uzra sayr qiling, plyajda toblaning, o'rmon-u bog'larida suratga tushing! Narxi osmon restoran va oshxonalarida taomlaning! Muomala madaniyatining yuksakligiga tan bering! Savdo shoxobchalaridan sifatli brend mollarini xarid qiling! Ammo qachon, qayerga bormang, O'zbekistonni, uning to'rt faslga mos nur taratuvchi oftobini, to'lib-toshgan bozoru savdo rastalarini, bag'rikeng, saxovatli elini, duogo'y mo'ysafid-u munis onalarini, eng muhimi, odamiylik ilmi bilan tan olingan xalqini sog'inasiz! Rad etib bo'lmaydigan bu haqiqatni ardoqlash har birimizga ham qarz, ham farzdir.

Faxr

ISTIQLOL – O‘ZLIK, ILM VA MA’RIFAT TAYANCHI

Ba’zi sanalar taqvimdagi oddiy raqam emas. Ular millat taqdiriga muhrlangan tarixdir. **1991-yil 31-avgust** ana shunday ulug’ sana – xalqimizning asriy orzu-intilishlari ro’yobga chiqqan, O‘zbekiston o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini qo‘lga kiritgan tarixiy kundir. Mustaqillik qadri yillar o‘tgani sari yanada teranroq anglaymiz. Chunki istiqlol bizga nafaqat siyosiy erkinlik, balki **o‘zligimizni anglash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni xolis o‘rganish, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-ma’naviy xazinani erkin tadqiq etish va uni dunyoga tanitish imkonini ham berdi.**

Bugun O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining **35 yilligini nishonlash** arafasida o‘tgan davrga nazar tashlar ekanmiz, istiqlol yillarida yurtimiz hayotining barcha sohalari ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilganiga guvoh bo‘lamiz. Bu islohotlar nafaqat iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni, balki xalqimizning ma’naviy hayotini ham tubdan yangiladi. Ayniqsa, milliy tariximiz va qadriyatlarimizni qayta tiklash, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish, ilm-fan va ma’rifatni jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchiga aylantirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu esa milliy o‘zligimizni yanada chuqur anglashimiz ajdodlarimizga munosib voris bo‘lish tuyg‘usining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar merosini o‘rganishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston zamini asrlar davomida jahon ilm-fani va madaniyatining yirik o‘choqlaridan biri bo‘lib kelgan. **Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf, Shosh, Kesh, Farg‘ona** kabi tarixiy markazlarda hadis, fiqh, tafsir, kalom, tasavvuf, falsafa, astronomiya, matematika, tibbiyot, adabiyot kabi ilmlar keng rivoj topgani tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Bu zamindan yetishib chiqqan **Imom Buxoriy (810–870), Imom Termiziy (824–892/893), Imom Moturidiy (taxminan 870–944), Ahmad Farg‘oniy (taxminan 797–865), Abul Muin Nasafiy (1027–1114), Abu Yusr Pazdaviy (1030–1099), Qaffol Shoshiy (904–976), Bahouddin Naqshband (1318–1389)** singari allomalarning nomlari bugun nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro doirada doimiy tilga olinadi.

Bu ulug’ zotlar har biri o‘z sohasida ulkan ilmiy-ma’naviy maktab yaratdi. Eng muhimi, **ularning boy ma’naviy merosida ilm bilan axloq, bilim bilan mas’uliyat, tafakkur bilan ma’naviyat uyg‘unlashgan.** Shu bois bugun ajdodlar merosini o‘rganish faqat o‘tmishga qiziqish emas, balki **kelajak avlod dunyoqarashini boyitish, ilmga hurmat va ma’rifatga intilishni kuchaytirishning muhim vositasidir.**

Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-ma’naviy merosni chuqur o‘rganish, uni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish va yosh avlodga yetkazish borasida izchil ishlar amalga oshirildi.

Ana shu keng ko‘lamli ma’rifiy jarayonda qadimiy Termiz zaminining o‘rni va undan yetishib chiqqan allomalarning boy merosi alohida ahamiyatga ega. Qadimgi Termiz asrlar davomida Sharqning

muhim ilm va madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu zaminda hadis-shunoslik, fiqh, tafsir, kalom va tasavvuf sohalarida o‘ziga xos ilmiy muhit shakllangan. Termiziylar nomi bilan tanilgan allomalarning asarlari Movarounnahr va Xuroson ilm-fani taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan.

Bu ma’naviy maktabning eng ulug’ vakillaridan biri **Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziydir (824–892/893).** Imom Termiziy hadis ilmining buyuk namoyandalaridan biri sifatida ilm talabida turli yurtlarga safar qildi, mashhur muhaddislardan ta’lim oldi va o‘zidan boy ilmiy meros qoldirdi. Uning **“Al-Jomi” (“Sunani Termiziy”)** asari hadis ilmining muhim manbalaridan biri sanaladi. **“Ash-Shamoil an-Nabaviyya” (“Shamoili Muhammadiya”)** asari esa Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning axloq-odobi, fazilatlarini va hayot tarzini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Imom Termiziy asarlarining bugungi kunda ham o‘rganilayotgani ularning ilmiy va ma’naviy qimmatini yuksakligidan dalolat beradi.

Bugun Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Termiz zaminidan yetishib chiqqan allomalarning hayoti va ilmiy-ma’naviy merosini tadqiq etish, asarlarini o‘rganish, tarjima va nashr qilish, ilmiy natijalarni keng jamoatchilikka yetkazish borasida ish olib bormoqda. Markaz faoliyatining muhim ahamiyati shundaki, Termiziylar merosi endi alohida-alohida siymolar faoliyati doirasidagina emas, balki **yaxlit ilmiy maktab va ma’naviy muhit** sifatida tadqiq etilmoqda. Termiziy nisbasi bilan ijod qilgan **230 ga yaqin alloma** hayoti va faoliyati bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu raqam Termiz zaminida shakllangan ilmiy-ma’rifiy muhitning ko‘lamini tasavvur qilish imkonini beradi. Ular orasida **Hakim Termiziy (820–932), Abu Bakr Varroq Termiziy (vafoti 907), Abu Ja’far Muhammad ibn Ahmad at-Termiziy (816–909), Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy (1165–1240), Xoja Samandar Termiziy (taxminan 1638–1740), Adib Sobir Termiziy (1078–1147), Munjik Termiziy (X asr)** kabi alloma va adiblar bor. Bugungi kunga qadar Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy jamoasi tomonidan Termiziy allomalarning hayoti, ilmiy-ma’naviy merosi va asarlariga bag‘ishlangan **50 dan ortiq kitob va risola** tayyorlanib, nashr etildi hamda ilmiy va ma’rifiy muomalaga kiritildi.

Termiziy allomalarning hayoti va boy

ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, ular faqat ilm sohasi bilan cheklanib qolmagan. Aksincha, hadis, fiqh, tafsir, kalom, tasavvuf, adabiyot va boshqa ilm yo‘nalishlarida samarali ijod qilib, islom ma’rifatining yuksalishiga munosib hissa qo‘shganlar. Shu jihatdan, Termiziy allomalar merosi yaxlit holda o‘rganilganda, ularning ilm-fan va ma’naviyat taraqqiyotida tutgan o‘rni yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ajdodlar merosini o‘rganishda **Hakim Termiziy** nomi ham alohida ahamiyatga ega. Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bishr bo‘lib, hadis, tafsir, fiqh va tasavvuf sohalarida **80 dan ortiq asarlar** yozgan. **“Navodir al-usul”, “Tahsil nazoir al-Qur’on”, “Xatmal avliyo”** kabi asarlari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Hakim Termiziy merosini o‘rganishga bugun ham jiddiy e’tibor qaratilmoqda. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-iyuldagi “Buyuk vatandoshimiz, hadis va tasavvuf ilmining yetuk namoyandasi Hakim Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori** bilan alloma tavalludining 1200 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish belgilangan. Bu tashabbus Hakim Termiziyning ilmiy-ma’naviy merosini yangi tadqiqotlar asosida keng o‘rganishga xizmat qiladi.

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy jamoasi tomonidan Termiz zaminida shakllangan ilmiy maktablarni yaxlit tizim sifatida tadqiq etishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, **“Termiziylar hadis maktabi”, “Termiziylar fiqh maktabi”, “Termiziylar tafsir maktabi”, “Termiziylar kalom maktabi”, “Termiziylar tasavvuf maktabi”** kabi ilmiy risolalar tayyorlanib, nashr etildi. Mazkur tadqiqotlar orqali Termiz zaminida asrlar davomida shakllangan ilmiy an’analarning o‘ziga xos jihatlari, Termiziy allomalarning turli ilm sohalarini rivojiga qo‘shgan hissasi ochib berilmoqda. Ayni paytda ularning asarlarida mujassam bo‘lgan ilm-ma’rifat, yuksak axloq, bag‘rikenglik, ezgulik va inson kamolotiga oid g‘oyalarni bugungi avlodga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Shu ma’noda **“Buyuk Termiziylar”** rukni ostida xalqimizga tushunarli, sodda va mazmunli uslubda **20 ta xalqchil risola** tayyorlanib, nashr etildi. Ularda Termiz zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalarning hayoti, ilmiy faoliyati, boy ma’naviy merosi va asarlarida ilgari surilgan ezgu g‘oyalar keng yoritildi.

Tayyorlangan **20 ta risola Surxondaryo viloyatidagi 900 dan ortiq umumta’lim maktablari, davlat va jamoat tashkilotlariga taqdim etildi.** Shu tariqa Termiziy allomalarning boy ilmiy-ma’naviy merosi nafaqat soha mutaxassislari, balki keng kitobxonlar ommasini, xususan, yoshlar orasida ham targ‘ib qilinmoqda.

Bugun mamlakatimizda ajdodlar merosini o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy-ma’rifiy muassasalar tarmog‘i ham kengayib bormoqda. **Imom Buxoriy xalqaro**



Karomiddin JAMAHMATOV,
Imom Termiziy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi
direktori o‘rinbosari,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

ro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, shuningdek, **Hadis ilmi maktabi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Termiziy islom instituti** kabi muassasalarda ilm va ma’rifatni rivojlantirish, mutaxassislarni tayyorlash, tarixiy va diniy-ma’rifiy merosni tadqiq etishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda **Islom sivilizatsiyasi markazining ahamiyati ham beqiyos.** Unda yurtimiz hududida shakllangan islom sivilizatsiyasi, allomalar merosi va ilm-fan taraqqiyoti tarixini yaxlit tarzda namoyon etish maqsadi ko‘zlangan.

Ajdodlarimiz ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganishdan maqsad faqat ularning hayoti va asarlari haqida ma’lumot berish emas. Asosiy maqsad ularning ilm-fan va ma’rifat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini chuqur anglash, ilmiy izlanishlaridagi ibratli jihatlarni bugungi avlodga yetkazishdir. Masalan, Imom Buxoriy hadislarini to‘plash va saralashda yuksak ilmiy mezonlarga tayangan bo‘lsa, Imom Termiziy hadislarini jamlash, tasniflash va sharhlashda o‘ziga xos ilmiy uslub yaratdi. Imom Moturidiy aql va naqlni uyg‘unlashtirgan holda insonning e’tiqodiy masalalarini chuqur tahlil etdi. Ahmad Farg‘oniy aniq fanlar, xususan, astronomiya sohasida muhim ilmiy kashfiyotlar qildi. Hakim Termiziy esa inson ma’naviyati, axloqi va ruhiy kamoloti masalalariga katta e’tibor qaratdi.

Ajdodlar merosining qadri uning bugungi avlodga berayotgan ma’rifiy sabog‘i bilan belgilanadi. Imom Termiziyning **“Sunan Termiziy”** asarida ilm izlash fazilatiga bag‘ishlangan hadisda: **“Kim ilm talab qilib bir yo‘lga tushsa, Alloh unga jannat yo‘lini oson qiladi”**, deya rivoyat qilingan. Hakim Termiziyning **“Navodir al-usul”** asarida esa hadislar nafaqat rivoyat sifatida keltirilgan, ularning inson ma’naviy hayotidagi mazmuni va hikmati ham tahlil qilingan. Tadqiqotlarda allomaning qalb tarbiyasi, sabr, niyat pokligi va inson kamolotiga oid qarashlari muhim ahamiyatga molik ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Shu ma’noda, mustaqillikning **35 yillik bosib o‘tilgan taraqqiyot yo‘lini sarhisob qilish, istiqlol bergan imkoniyatlarni qadrlash va uning ne’matini yanada teran anglash uchun muhim ma’naviy palladir.** Tinchlikni asrash, ilm va ma’rifatni ulug‘lash, tarixiy merosimizni o‘rganib, uni kelajak avlodga yetkazish – istiqlolga sadoqat va shukronaning muhim ifodasidir.

Bo'lgan voqea



Muxlislar ham bor bo'lsin ekan. Ora-orada xabaringizni tutib, yozishga undab turishadi. Mana, bugun yana bittasi bilan suhbatlashib qoldim.

– Voy, nega yozmay ketdingiz, maza qilib o'qirdik. Mavzu yo'qmi, ilhom yo'qmi? – kuldi u.

– Ishtiyoq yo'q.

– Yo'g'ey, siz yozing. Qalamingiz bor – kimlargadir nafingiz tegadi.

– Yozarmiz, – deymen hafsalasiz.

– Men bir voqea aytib beray, shuni yozing. Mana, hozir zamon ajoyib. Bir paytlar ishimga qo'shimcha ravishda bog'chada ishlashimga to'g'ri kelgan. U yerdagi muhitni siz so'ramang, men aytmay. Birgina maosh masalasida yuzlab nayranglar bor deng. Deylik, qog'ozda 30 odam oylik oladi, ishlayotgan ishchi 5-6 kishi. Uning ham bittasi rahbarning o'zi. Tasavvur qiling: shu 30 odam ishlaydigan bari ishni 5 ta ishchi zo'riqib bajarishi kerak. Masalan, bir odam ham tarbiyachi, ham farrosh, ham enaga, ham kotiba.

Mudira Poshshaxon To'rayeva g'oz yuradigan, yoshi o'tsa ham tarovatini, tetikligini yo'qotmagan shijoatli ayol edi. Bu ayol bilan ishlashim yetti uxlab tushimga kirmagan. O'zi uyimizga kelib, qayta-qayta yalinib (keyin bilsam bog'chada taftish ketayotgan ekan) mutaxassis zarur deb ishga olgan. O'shanda oylik ish haqim 270000 lar atrofida (20 yillar oldingi gap). “Ishlamayman, maktabdan ruxsat berishmaydi”, deyishimga qaramay rozi qilishgan. “Yarim shtat, tushgacha ishlaysan, shu pulning yarmini beraman”, deyishdi. Rozi bo'ldim, o'z ishim ham yarim shtat, darslarim tushdan keyin edi. Lekin yangi ish joyimda nafas yetishmay bo'g'ila boshladim. Ham tarbiyachi, ham defektolog vazifasini bajarar, mashg'ulotlarni kanda qilmay o'tar, 5-6 xil jurnalnamo katta ish daftarlarni yuritardim. Haqgo'yilgim sababli menga u yerdagi muhit og'irlik qilardi. Boshqalarni qo'yavering, oy oxirida menga kelishilgan 130000 o'rninga 30000 berishdi, xolos. Haqimni talab qilganimda ming xil bahonalar ro'kach qilishdi. Talashdim-tor-tishdim, ishlamayman deb turib oldim. “Himmatlari tutib” oyligimni 50000 ga ko'tarishdi. Shu pulni ham berayotib Poshshaxon To'rayeva chaqchaydi:

– Qarg'ayman! Rozi emasman! Meni norozi qilib olgan oyliging teshib chiqadi, ikki dunyong kuyadi!

Qaltirab ketdim. Yosh edim, yuvosh edim. Lekin o'shanda o'rlik tomirim tortishdi, nohaqlikka chiday olmadim:

– Birinchidan, men sizning yoningizga kunim o'tmay, non topolmay, yalinib kelmaganman! O'zingizga mutaxassis kerak bo'lib yonimga borgansiz. Ikkinchidan, qarg'ishning ham ikki uchi bo'lad. Haq bo'lsa, tegadi. Nohaqqarg'agan qarg'ishingiz o'zingizga qaytib keladi! Shuning uchun sal o'ylab qarg'ang!

Men sizdan ehson so'ramadim, sadaqa tilanmadim – ish haqimni so'rayapman! O'zi harom ishlaringizga sherik bo'lib, siz bilan ishlashga rozi bo'lgan men ahmoq!

– Bu yerning o'z tartib-qoidalari bor! Chidagan ishlaydi! G'ing degan ishdan ketadi! Ish topolmay sarson bo'lib yurganlar son mingta! Men jinni seni tepa-tekinga ishga olibman-a!

– Unda ketaman! Manavi sadaqangizni esa pishirib yeng! Biroq unutmang: men buni shundayligicha qoldirmayman! – bergan pulini stolga urdim-u, chiqib ketdim.

Kuni bo'yi asabiylashib yurdim. Kechqurun mudira ayol uyimizga keldi. Tashqarida mashinadan tushmay, mu-loyimlik bilan mashinaga chiqishimni, gaplashib olishimiz kerakligini aytdi. Katta yoshli ayol, buning ustiga avvaldan tanishligimiz bor. Yuzxotir – non patir. Andisha ustunlik qilib mashinasiga chiqdim. U bosqlik, soxta xushmuomalalik bilan gap boshladi:

– Bilasanmi, qizim, to'g'risini aytсам, menga juda yoqib qolding. Bilimli, salohiyatli, to'g'riso'z qiz ekansan. Yonimda “xo'p, sizniki to'g'ri”, deb orqamdan pichoq sanchganlar qancha. Sen esa shartta yuzimga aytding. Ammo senam to'g'ri

BIR PAYTLAR

ekanman.

tushun. Ishimiz oson emas. Menga oyliklar to'lig'icha yetib kelmaydi. Qolaversa, har hafta komissiya kutishning o'zi bo'lmaydi. Qurug' qoshiq og'iz yirtar. Barini tinmay moylab turishim kerak. Tan olaman, seni qo'y og'zidan cho'p olmagan, uzoqroq qarindoshligimiz bor deb ishga taklif etgandim. Sen esa bugun meni xafa qilding. Yuzimga tarsaki tushirganday bo'lding. Mo'min-qobil ishchilarimning yonida obro'yimni to'kding.

“Qo'shni-qo'shnidan erta turishni o'rganibdi”, deyishganidek ertaga bular sendan ilhomlanib bosh ko'tarib chiqsa nima qilaman? Uyim kuyadi-ku? Bir elda yashaymiz. Ko'z-ko'zga tushadi. Onang bilan qarindoshligimiz bor. Shu paytgacha hech kim men bilan bunday ohangda gaplashmagan. Nima desam og'zimga qarab turishgan. Sen esa... topatasdan (to'satdan) meni talabgina tashlading. Yana “bu ishni shunday qoldirmayman” deb ketding? Bu nimasi?! Sal murosa qilib gaplashish mumkin edi-ku?!

– Men sizga bosqlik bilan tushuntirishga harakat qildim. Tushunishni istamadingiz.

– Istamayman ham! Sening talabing aqlga sig'maydigan narsa. Hech qachon unday oylik bera olmayman! 6 kun ertadan kechgacha ishlagan ishchilarimga 30000 beraman-u... Jon demaysanmi tushgacha ishlab 50000 olsang?! Insof ham kerak ozgina!

– ...jon demayman! Iltimos, hamma gapirsa ham siz insofdan gapirmang! Bog'changizda ko'zim bilan ko'rgan nohaqliklarni aqlim qabul qila olmay tormozlanib qolgan o'zi! Bolalarning ovqatiga razm solib “ozgina insof kerak odamga” deb o'ylamaysizmi?! Taftishchi keldi-keldi xabari bo'lgandan ovqatga avvaldan qovurilib muzlatkichda saqlanayotgan go'shtlarni soldirganingizda, ular qozonni kavlab qaytib ketgach, bolajonlarga shuni yedirmay qayta terib olib muzxonaga tiqqaningizda o'ylamaysizmi ikki dunyongizni? Qayta revizor kelguncha muzlatkichda saqlanib, yana signal bo'lishi bilan qozonga tushib-chiqaverib, rangi o'zgarib ketgan o'sha go'shtlarni hech qachon bolajonlarga ravo ko'rmay, yarmini uyingizga yuborib, yarmini tushlikda qovurtirib yeganingizda tomog'i-

ngizga nimadir tiqilmaydimi mabodo?! Ishchilaringizning oylikdan, zulmdan, qadrini yer bilan yakson qilayotganingizdan noroziligini bila turib vijdoningiz qiyalmaydimi? Bir xodimga 5 odamning ishini yuklab, qo'shimchasiga uyingizda mehmon kuttirganingizda, gektar-gektar dalangizda jo'xori o'rdirib, molxonangizga tashitganda-chi? Shu “ozgina insof” degan tushuncha xayolingizni tirnamaydimi?! Yillar davomida “stajing yurib turadi, ertaga pensiyani ko'proq olasan”, deb sodda odamlardan dollar olib, yo'q odamlarning nomiga oylik yozib, jig'ildoningizga urganingizda insof degan tushuncha borligini hech o'ylab ko'rganmisiz?! Yana menga – o'z oyligini so'ragan haqdorga “ozgina insof qil” deysiz?

Chuqur xo'rsinib davom etdim: “Xulas, o'zimning maktabim jannat ekan. Qadrini bilmas

Vedomostda qancha maoshga imzo cheksak shuncha pul olamiz. To'y-hashamga, obunaga deb ushlab qolinadigan ozgina pulga ham norozi bo'lar ekanmiz”.

Shuncha gapimga ko'zi olayib bosh chayqab-chayqab tinglayotgan opaga birdan jon kirdi:

– Ha, barakalla! Hali men senga bergan aqchadan to'y-ma'rakaga, obunaga ushlab qolmabman. Shuni olib qolib qolganini bergani keldim, – rahbar opa shunday deb pul uzatdi. – Chiqimlarimizga berganingni berarsan bu puldan qaytarib. Senga “muncha ber” deb stavka qo'ymayman, mayli.

Qo'liga qaradim. Yana 50000!

U men bilan savdolashmoqchiga o'xshaydi-ku? Odam ham bu qadar pul kabobi bo'lar ekan-da, a? Siz ko'rganmisiz shu qadar tuban ketgan kishini? Shuncha gapdan keyin ham...

– Baraka toping, menga bunday oylik kerak emas! Hozir ariza yozib berib yuboraman, bo'shadi deb hisoblayvering!

– Yo'q-yo'q! Eshitib o'tiribsan: bir g'alamislar imzosiz xat yozib, bog'cham tekshir-tekshirga tushgan. Ishim sudga oshgan. Ikki-uch oy chidab tur, iltimos. Hozir bo'shata olmayman. Mayli, kelishamiz. Biroq hech kimga aytmay-san. Ishchilarning orasida adolatdan og'iz ochmay-san. Hurmatimni joyiga qo'yib muomala qilasan!

– Shunda to'liq oyligimni berasizmi? – kinoyali kulimsiradim yuziga boqib. Uning bir ko'zi pir-pir uchar, yuzi bilinar-bilinmas qaltirar edi.

– H.ha. Beraman, beraman. – U shunday deb boyagi qo'lidagi pulni kissasiga soldi-yu, mashina g'aladonidan bir pachka 100 talik oldi.

– Mana, 100000 so'm. Men buncha katta pulni hali hech kimga bermaganman lekin. – Uning peshonasi tirishib ketgan, tishini sug'urib berayotganday azob bilan boqar, pul uzatib turgan qo'llari dir-dir titrar edi.

– Har gal oylik tarqatganimda jim ketaverasan. Uyingga kelib bugungiday 100000 berib ketaveraman. Ammo hech kimga bir og'iz aytmay-san! Xodimlarim bilsa, ularning ham og'zi qiyshayib, nafs hakalak otib, olayotgan maoshiga qanoat qilmay qo'yishadi.

So'zlashgim ham, yuziga qaragim ham kelmay qolgan, tezroq bu nusxadan

qutulsam der edim. Xayrlashmay mashi-nadan tushishga chog'lanib eshikni ochdim.

– To'xta, aylanayin jonim qizim, buving tengiman axir. Bunday yuzimga oyoq bosib tushib ketma, – u ikki qo'llab meni quchoqlab oldi.

Ichimda o'zim bilan o'zim ku-rashardim. Bu pul hozir ro'zg'orimizga juda-juda kerak edi. Axir halol ish haqim-ku! Undan keyin bu tomir otib ketgan ayyor, buqalamun bilan olishishga kuchim ham, imkonim ham, xohishim ham yo'q, mayda bolalari bor, hali o'ttizga ham kirmagan o'z hayotini yashayotgan sodda bir juvon edim.

Ko'ndim oxiri. O'sha pulni oldim.

– Shartlashganimiz yodingda-ya, bolam? Yana haligi gaplarni uyoq-buyoqqa yozaman deb yurmagin-a? Bilaman, bilaman, sen unday iflos, birovning ustidan yozadigan insonmassan! Har ehtimolga qarshi aytayapmanda buni!

Qanday tushdim, qanday uyga kirdim, bilmayman. Xo'rligim kelar, xonamga kirib yig'lab-yig'lab olsam, hech kim ko'rmasa derdim. Ayvonda qaynona-qaynotam choy ichib o'tirishgan ekan. Eshikdan kirganimdan yaraq etib qarashdi:

– Ha, nega kelibdi Poshshaxon?

– Oylik bergani, – qo'limda mahkam siqib turgan pulni qaynonam yoniga ko'rpacha ustiga qo'ydim-u, to'xtamasdan xonamga o'tib ketdim.

– Poshshaxonga etaging tegib ketsa, qirqib tashla deganman. Kampir, bekor kirgizding kelinni ishga, – dedi qaynotam o'ychan.

– Ro'zg'orga harnada! Ishlayversin, – dedi qaynonam quvonchli ovozda pulni ko'rpacha ostiga tiqayotib.

U paytlar men yashayotgan muhitda hozirgiday oshkoralik, erkinlik, haq-huquqini bilish, talab qilish degan tushunchalar qayda deysiz. Bir-ikkita shundaylar chiqsa oq ko'ylakka qora yamoqday xunuk ko'rinar. Hozirgi payt bilan solishtirib yoshlarga qarab g'ururlanib ketaman. Zamonangdan aylanay. Har zamonga bir zamon. O'z o'rni, o'z so'ziga ega yoshlar. Ish joylarida bunday zug'um-u zulmlar bo'lishi ularning yetti uxlab tushiga ham kirmasa kerak. Baribir u yerda uzoq ishlay olmadim. Mudiraning atayin zimdan qiladigan yovqarashlari jonimni hiqildog'imga keltirdi. Va bir kuni jonimga tegib shartta bo'shab ketdim. Lekin bir narsaga xursand edim. Chamasi, bu ishxonaning biqiq muhitiga ozgina toza havo olib kirolldim, shekilli. Yo vaziyat pishib yetilib, odamlardagi norozilik isyonkorlikka aylanib kelayotganmidi, davr o'zgarib, hurriyat shamollari biz tomonda ham esa boshlaganmidi, mendan keyin birin-ketin bosh ko'taradiganlar, haqini talab qiladiganlar, qattiqqa borsa sudlashadiganlar ko'paydi.

– Sen hammamizga haqiqatparvarligingni yuqtirib, ko'zimizni ochib ketding, – deb hazillashishardi sobiq hamkasblarni ko'rib qolsam. Poshshaxon nima bo'ldi deysizmi? Keyingi hayoti bilan ishim bo'lmay qoldi. Lekin haligacha otdan tushsa ham egardan tushmay, kimlar bilandir kurashib, o'tlashib-sudlashib yuradi deb eshitaman. U qarimaydimi, charchamaydimi, deysiz-da? Men ham shunga hayronman! “O'lib qolsam ishxonamga ko'masizlar”, dermish. O'z ishiga “muhabbat” bo'lsa shu darajada bo'lsin ekan-da! A, nima deysiz?

Salomat ESHIMBETOVA,
Beruniy tumanidagi
47-maktabning ona tili va adabiyot
o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga

BU ULUG' TARIX, SHUBHASIZ, "MA'RIFAT" SO'ZI BILAN DAVOM ETADI



Mustaqillikning 35 yilligi arafasida ortga bir nazar tashlar ekanmiz, ko'z o'ngimizda avvalo bir haqiqat namoyon bo'ladi: istiqlol – faqat tarixiy sana emas. U xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, milliy tafakkur va qadriyatlarni tiklash, ertangi kunga daxldorlik hissi bilan yashash imkoniyatidir.

O'ttiz besh yil – tarix mezonida katta davr emas. Ammo shu yillar ichida O'zbekiston o'z davlatchiligining mustahkam poydevorini yaratdi, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egalladi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ulkan o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ayniqsa, keyingi o'n yil mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu davrni birgina raqamlar yoki qabul qilingan hujjatlar bilan baholab bo'lmaydi. Zero, islohotlarning haqiqiy mezon – ular inson hayotida, uning dunyoqarashida, o'z kelajagiga munosabatida qanday aks etayotganidir. Shu ma'noda so'ngi yillarda ilgari surilgan "Inson qadri uchun" tamoyili mamlakatdagi yangilanishlarning mazmun-mohiyatini ifodalovchi muhim g'oyaga aylandi.

TA'LIM, TA'LIM VA YANA TA'LIM

Mamlakatdagi har qanday yangilanishning taqdiri, avvalo, maktabda, auditoriyada, o'qituvchi va o'quvchi munosabatida namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga bo'lgan munosabatning o'zgarishi islohotlarning eng muhim belgilaridan biri bo'ldi. Maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'lim va ilm-fangacha bo'lgan tizimda yangi yondashuvlar joriy etildi. 2017–2023-yillarda maktabgacha va maktab ta'limini isloh qilishga doir 150 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilingani ham sohada o'zgarishlar ko'lamini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim qamrovining sezilarli darajada kengayishi, nodavlat ta'lim muassasalarining ko'payishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi – bularning barchasi ta'limni jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida ko'rish kuchayganidan dalolatdir.

Eng muhimi, ta'lim mazmuni ham o'zgarmiqda. Bugun o'quvchiga faqat ma'lumot berish yetarli emas. Unda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, axborotni saralash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, Vatan va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etish ko'nikmalarini shakllantirish talab etilmoqda.

2026-yilda UNICEF tomonidan O'zbekistonda ta'lim mazmunini yangilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar, jumladan, o'quvchilarning savodxonligi, hisob-kitob ko'nikmalari va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos bilimlarni shakllantirishga qaratilgan ishlar alohida qayd etildi. Bu e'tirofning zamirida, avvalo, o'zbek o'qituvchisining mehnati bor. Chunki ta'limdagi har qanday dastur, standart yoki texnologiyani hayotga tatbiq etadigan asosiy kuch – o'qituvchi.

Maktabdagi bir soat dars, ustozning bir og'iz so'zi, o'quvchining qalbiga singdirilgan bir ezgu g'oya ba'zan butun bir avlod taqdiriga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun bugun ustozga bo'lgan e'tiborni faqat moddiy rag'bat bilan o'lchab bo'lmaydi. O'qituvchiga ishonch bildirish, uning kasbiy sha'ni va ijodiy erkinligini hurmat qilish, jamiyatdagi nufuzini yuksaltirish – aslida millat kelajagiga ishonch bildirishdir.

ZIYOLI – ERTANING GAPINI BUGUN AYTADIGAN SHAXS

Ziyoli – faqat kitob o'qigan yoki ilmiy unvonga ega inson emas. Ziyoli – jamiyatning ertangi kuni haqida bugun o'ylaydigan, haqiqatni izlaydigan, mas'uliyatni his qiladigan, o'z so'zi va faoliyati bilan boshqalarga ta'sir ko'rsata oladigan inson. Ayniqsa, pedagog zimmasidagi ma'naviy mas'uliyat yanada katta. Chunki u har kuni o'nlab, yuzlab yoshlar bilan muloqot qiladi. O'quvchi ustozdan nafaqat fanni, balki munosabatni, hayotga qarashni, Vatanga muhabbatni, mehnatga munosabatni ham o'rganadi.

Masalan, ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni olaylik. 2017-yildan keyin maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish, maktab ta'limini yangilash, oliy ta'lim imkoniyatlarini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 3–7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim qamrovi 2017-yildagi 27 foizdan 2024-yilda 75 foizga yetgan. Biroq bu raqamning ortida yana bir katta haqiqat bor. Maktabga kirgan har bir bola – mamlakatning kelajagiga kirib kelgan yangi imkoniyatdir. Shu sabab ta'lim islohoti – iqtisodiy islohotdan ham kengroq ma'noga ega. Zero, u millatning intellektual qiyofasini o'zgartiradi. U – bilimli, erkin fikrlaydigan, milliy o'zligini anglagan va dunyo bilan raqobatlasha oladigan avlodni tarbiyalaydi.

Ustoz – islohotning eng ishonchli elchisi. Ma'rifatni boshqalardan ko'ra chuqurroq his qiladigan inson – bu pedagog. Har bir islohotning oxirgi manzili – inson qalbi va ongi ekanini inobatga olsak, Prezident farmonini o'quvchiga tushuntiradigan ham, yangi o'quv dasturini amaliyotga aylantiradigan ham, bolaga kitobni sevdirib, unda Vatan tuyg'usini uyg'otadigan ham – ustoz. Shu ma'noda bugungi pedagog oddiy ta'lim beruvchi emas, balki islohotlarning ma'rifiy tarjimoni, davlat siyosatidagi yangi g'oyalarni avlod tafakkuriga olib kiruvchi, jamiyatning ma'naviy im-

munitetini mustahkamlashda ilg'or, har bir yoshni axborot oqimi ichida yo'l topishga, haqiqat bilan yolg'onni farqlashga, milliy qadriyat bilan zamonaviylikni uyg'unlashtirishga o'rgata oladigan ustozdir. Ayniqsa, bugun dunyoda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va axborot oqimlari inson hayotini tubdan o'zgartirayotgan bir paytda bu vazifaning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Texnologiya bilimni yetkazishi mumkin. Ammo bilimdan qanday foydalanishni, uni ezigulikka qanday yo'naltirishni insonga inson o'rgatadi. Buning uchun esa albatta ustoz kerak.

O'zbekistonning tarixiy tajribasiga qarasa, yurtimizdagi buyuk uyg'onishlar hamisha ilm va ma'rifat bilan boshlanganini ko'ramiz. Jumladan:

➤ Birinchi Renessans – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy kabi allomalar nomi bilan bog'liq.

➤ Ikkinchi Renessans – Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy kabi buyuk siymolar bilan bog'liq.

Ularni birlashtirib turgan umumiy jihati esa bitta: ilmga ishonch.

Bugun Uchinchi Renessans haqida so'z yuritilar ekan, uning poydevori ham xuddi shu ma'rifat zaminiga qurilmoqda.

Akademik Akmal Saidov ta'kidlaganidek, Yangi Uyg'onish davrining poydevorini yaratish besh-o'n yillik vazifa emas; bu uzoq davom etadigan, juda ko'p kuch, mehnat, va eng muhimi, iste'dodli kadrlar hamda fidoyi insonlarni talab qiladigan jarayondir. Demak, bugungi islohotlarning eng katta vazifasi – ertangi islohotlarni davom ettiradigan insonni tarbiyalash. Bu esa, yana bir bor aytamiz, maktabdan boshlanadi.

Biz kelajak avlod o'qiydigan tarixning yangi sahifalarini yozmoqdamiz. Bu sahifalarda iqtisodiy taraqqiyot ham bo'ladi. Zamonaviy shaharlar ham bo'ladi. Yangi texnologiyalar ham bo'ladi. Ammo ulardan ham muhimrog'i – ma'rifatli inson, erkin tafakkur, yuksak ma'naviyat va Vatanga daxldorlik tuyg'usi bo'lishi kerak.

Ustoz pedagog – jamiyatning eng ilg'or ziyolisi sifatida tarixning shunchaki guvohi emas, uning bunyodkori bo'la olishi kerak. Bugungi e'tirofning eng munosib shakli – o'tgan yo'ldan faxrlanish va kelajak oldidagi mas'uliyatni yanada chuqur his etishdir.

Mustaqillik – bizga ozod yurt berdi. Islohotlar – uni yangilash imkonini bermiqda.

Ma'rifat esa – uning kelajagini belgilaydi.

Shunday ekan, mustaqillikning navbatdagi o'n yilliklarida ham ziyolilarga bo'lgan ishonch kuchayaveradi.

"MEN TANIGAN O'ZBEKISTON": XALQ BILAN HAMNAFAS

Islohotlarning miqyosini anglash uchun ba'zan o'zimizdan bir qadam



Muhammad EGAMBERDIYEV,
O'zbekiston Respublika
Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi magistratura
tinglovchisi

chetga chiqib, O'zbekistonga tashqaridan qarash ham kerak. O'zbekistonga yillar davomida ilmiy va ijodiy qiziqish bilan qarab kelayotgan xorijlik ziyolining kitobi dunyo yuzini ko'rdi.

2026-yilda turkiyalik olim, yozuvchi va jamoat arbobi doktor Kemal Yavuz Atamanning "Men tanigan O'zbekiston" kitobi o'zbek va turk tillarida nashr etildi. Asar oddiy safar taassurotlari emas, balki muallifning O'zbekiston haqidagi ko'pyillik ilmiy kuzatishlari va xulosalarini qamrab olgan. Unda mamlakatimizning qadimiy tarixi, boy ma'naviy merosi, turkiy-islom sivilizatsiyasidagi o'rni, buyuk allomalari va davlatchilik an'analari bilan bir qatorda, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va inson qadrini ulug'lashga qaratilgan siyosat ham yoritilgan.

Mazkur kitobning o'ziga xos qimmat shundaki, unda O'zbekiston yurtimizni yillar davomida o'rgangan xorijlik ziyolining nigohida namoyon bo'ladi.

Atamanning ilmiy qarashlarida Navoiy shaxsiyatiga berilgan baho ham bejiz emas. U buyuk mutafakkirni faqat shoir emas, balki jamiyatni anglagan, ilm ahlini va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlagan, davlat va jamiyat taraqqiyotiga amaliy hissa qo'shgan komil shaxs sifatida talqin qiladi. Bu fikr bugungi kun uchun ham g'oyat dolzarb. Chunki millat taraqqiyotining eng katta kapitali – tabiiy boylik emas, insonning bilimi, ma'rifati, vijdoni va jamiyat oldidagi mas'uliyatidir.

Zero, Yangi O'zbekiston eng mas'uliyatli vazifa sifatida o'z oldiga islohotlarning miqyosini emas, sifatini oshirishni hamda ilmiy, ma'naviyatli, vatanparvar va faol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan. Shunday ekan, Mustaqillikning 35 yillik sahifalari yakunlanayotgan bir pallada o'tgan yo'lga baho berish bilan birga kelajak avlod o'qiydigan tarixning navbatdagi sahifalarini yozayotganimiz bizga alohida mas'uliyat yuklaydi. Va bu sahifalar ham, shubhasiz, ma'rifat so'zi bilan davom etadi.



O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI PEDAGOG XODIMLAR LAVOZIMLARINI SHARTNOMA ASOSIDA EGALLASH UCHUN TANLOV E'LON QILADI

Kafedra mudiri lavozimiga: Jangovar yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiati, Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiati, Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiati, Eshkak eshish sport turlari nazariyasi va uslubiati, Taekvondo, qilichbozlik nazariyasi va uslubiati *kafedralariga*;

Professor lavozimiga: Boks nazariyasi va uslubiati, Jangovar yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiati, Futbol nazariyasi va uslubiati, Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiati, Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiati, Qishki va murakkab-texnik sport turlari nazariyasi va uslubiati, Taekvondo, qilichbozlik nazariyasi va uslubiati, Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiati, Sport kurashlari nazariyasi va uslubiati, Adaptiv jismoniy tarbiya va parasport, Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiati, Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish, Ijtimoiy gumanitar fanlar *kafedralariga*;

Dotsent lavozimiga: Boks nazariyasi va uslubiati, Futbol nazariyasi va uslubiati, Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiati, Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiati, Qishki va murakkab-texnik sport turlari nazariyasi va uslubiati, Og'ir atletika, ot sporti nazariyasi va uslubiati, Suv sporti turlari nazariyasi va uslubiati, Eshkak eshish sport turlari nazariyasi va uslubiati, Taekvondo, qilichbozlik nazariyasi va uslubiati, Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiati, Dzyudo, sambo nazariyasi va uslubiati, Yengil atletika nazariyasi va uslubiati, Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiati,

Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish, Sport psixologiyasi va pedagogika, Tibbiy-biologik fanlar, Ijtimoiy gumanitar fanlar *kafedralariga*;

Katta o'qituvchi lavozimiga: Boks nazariyasi va uslubiati, Jangovar yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiati, Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiati, Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiati, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiati, Qishki va murakkab-texnik sport turlari nazariyasi va uslubiati, Eshkak eshish sport turlari nazariyasi va uslubiati, Taekvondo, qilichbozlik nazariyasi va uslubiati, Tennis, badminton, stol tennisi nazariyasi va uslubiati, Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiati, Yengil atletika nazariyasi va uslubiati, Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiati, Tibbiy-biologik fanlar, Ijtimoiy gumanitar fanlar *kafedralariga*;

O'qituvchi lavozimiga: Boks nazariyasi va uslubiati, Jangovar yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiati, Futbol nazariyasi va uslubiati, Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiati, Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiati, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiati, Qishki va murakkab-texnik sport turlari nazariyasi va uslubiati, Og'ir atletika, ot sporti nazariyasi va uslubiati, Suv sporti turlari nazariyasi va uslubiati, Eshkak eshish sport turlari nazariyasi va uslubiati, Taekvondo, qilichbozlik

nazariyasi va uslubiati, Tennis, badminton, stol tennisi nazariyasi va uslubiati, Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiati, Dzyudo, sambo nazariyasi va uslubiati, Sport kurashlari nazariyasi va uslubiati, Yengil atletika nazariyasi va uslubiati, Adaptiv jismoniy tarbiya va parasport, Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiati, Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish, Sport psixologiyasi va pedagogika, Tibbiy-biologik fanlar, O'zbek va chet tillari, Ijtimoiy gumanitar fanlar *kafedralariga*.

TANLOVDA ISHTIROK ETISH ISTAGINI BILDIRGANLAR QUYIDA- GI HUJJATLARNI TAQDIM ETISH- LARI LOZIM:

- O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori nomiga ariza;
- pasport nusxasi,
- kadrlarni qayd qilish shaxsiy varaqasi;
- oliy ma'lumoti haqidagi diplom nusxasi.

Qatnashuvchilarda ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda ular tegishli diplomlar, attestatlar nusxalarini va ilmiy ishlar ro'yxatini hamda malaka oshirish to'g'risidagi guvohnoma nusxalarini taqdim etishlari kerak.

Eslatma: *Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.*

Manzil: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri,
Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Murojaat uchun telefonlar:
(70) 717-27-27, 717-17-76; e-mail: info@jtsu.uz

Isomov Mirasqad Maksudovichning 14.00.21 – Stomatologiya hamda 14.00.28 – Neyroxirurgiya ixtisosliklari bo'yicha "Yuz-jag' birgalikdagi jarohati bo'lgan bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, tashxislash va davolashni maqbullash-tirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: sammu@sammu.uz

Ismailov Zohidjon Nurmanovichning 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Periferik asab tizimi patologiyasi bo'lgan bolalarning kompleks reabilitatsiyasi" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.30.12.Tib.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-sentabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100007, Toshkent shahri, Parkent ko'chasi, 51-uy.
Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz

Odilova Nozima Nizomiddinovnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek ertaklari mifonimlari tizimida spellonimlarning o'rni va poetik talqin xususiyatlari" mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-sentabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 221-29-14; e-mail: bxu@gmail.com

Nosirov Jahongir Normurot o'g'lining 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak muhandislarni standartlash-tirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING SANITARIYA, GIGIYENA VA KASB KASALLIKLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI****2026-2027-O'QUV YILI "GIGIYENA – 14.00.07" YO'NALISHI UCHUN DOKTORANTURA(DSc) VA TAYANCH DOKTORANTURA(PhD) IZLANUVCHILIKKA QABUL E'LON QILADI!***Hujjatlar 2026-yil 15-sentabridan 15-oktabrigacha qabul qilinadi.**Doktorantura(DSc)ga berilgan kvota – 1 ta; tayanch doktorantura(PhD)ga berilgan kvota – 3 ta.***1. Doktorantura(DSc)ga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:**

■ fan nomzodi yoki falsafa doktori(PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar;

■ fan nomzodi yoki falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasi yoxud ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar olgandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori(DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lish.

Doktoranturada o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ✓ ariza;
- ✓ pasport nusxasi;
- ✓ qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- ✓ mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- ✓ oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori(PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;
- ✓ tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori(DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining batafsil loyihasi;

✓ nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning (kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis) nusxalari;

✓ xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.

2. Tayanch doktorantura(PhD)ga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

■ magistr darajasi yoxud klinik ordinaturani tugatgan (tibbiyot fanlari uchun), (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplomga ega bo'lganlar;

■ falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida 1 ta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha 2 tadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislari ega bo'lganlar.

Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ✓ ariza;
- ✓ pasport nusxasi;
- ✓ qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- ✓ mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- ✓ oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki klinik ordinaturani tugatganligi oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari

bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;

✓ nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida 1 ta maqola va 2 ta tezis);

✓ xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat;

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadi(mavjud bo'lsa).

✓ **Talabgorlarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 14-iyundagi 211-son buyrug'iga muvofiq ilovada keltirilgan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi (kamida B1 daraja) milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatlar mavjud bo'lishi talab etiladi.**

1. Talabgorlarni qabul qilish ilmiy-tadqiqot ishi taqdimoti asosida amalga oshiriladi.

2. Barcha hujjatlar PDF shaklida tayyorlanib, 2026-yil 15-sentabrdan 15-oktabrigacha (mazkur sana ham kiradi) Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtiruvchi Yagona elektron tizimi (<https://daraja.ilmiy.uz/>) orqali ro'yxatdan o'tgan holda qabul qilinadi.

Batafsil ma'lumot uchun quyidagi manzilga murojaat qiling:

100050, Toshkent shahri, Oltintepa ko'chasi, 325-uy. Telefonlar: (93) 595-05-55, (97) 709-58-87.

Babajanova Lola Azadovnaning 06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha “Ko'kat sabzavot ekinlari (shivit, petrushka, selder)ning zamburug'lar qo'zg'atadigan kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotekhnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 3-sentabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUEAITI. Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Xolxodjayeva Dilfuza Shoakrom qizining 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Kasbiy ta'lim tashkilotlarida xorijiy tilni kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Negmatshayeva Mubinabonu Sinobek qizining 14.00.02 – Morfologiya hamda 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosliklari bo'yicha “Homilador ayollar preeklampsiyasida platsenta disfunktsiyasining morfometrik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy. Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Ro'zmanov Abdullo Norboy o'g'lining 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “Takroriy ekin sifatida kungaboqarni (Helianthus annuus L.) ekish muddatlari va oziqlantirish me'yorlarining hosildorlik hamda moydorligiga ta'siri” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Ablatova Aysanem Majitovnaning 05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi ixtisosligi bo'yicha “Murakkab geologik sharoitda gidrotexnika inshootlaridan xavfsiz foydalanish usullarini takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy. Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Nishonova Baxora Nishonovnaning 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha “G'o'zaning istiqbolli C-6580 navini yetishtirish agrotekhnologiyasi elementlarini ishlab chiqish (Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotekhnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-sentabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUEAITI ko'chasi. Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

OLIV TA'LIMNAN KEYINGI TA'LIM INSTITUTLARIGA

HUJJAT TOPSHIRMOQCHI BO'LGAN TALABGORLAR

DIQQATIGA!

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti quyidagi ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura(PhD), doktorantura(DSc) va mustaqil izlanuvchilik(PhD), (DSc) uchun hujjatlar qabuli boshlanganini e'lon qiladi:

Ixtisosliklar shifri:

13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi (Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha);

13.00.05 – Kasb-hunar ta'lim nazariyasi va metodikasi;

13.00.07 – Ta'limda menejment(Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha).

T/R	Ixtisoslik shifri va nomi	Doktorantura	
		DSc	PhD
Jami		2 nafar	7 nafar
1	13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi		1 nafar

2	13.00.05 – Kasb-hunar ta'lim nazariyasi va metodikasi	1 nafar	4 nafar
3	13.00.07 – Ta'limda menejment	1 nafar	2 nafar

Eslatma! Barcha hujjatlar PDF shaklida tayyorlanib, Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtiruvchi Yagona elektron tizimi (<https://daraja.ilmiy.uz/>) orqali ro'yxatdan o'tgan holda yuboriladi.

Qabul muddati: 2026-yil 15-sentabrdan 15-oktabrgacha.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37;
e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Djuraboyeva Dilafruz Nuritdinovnaning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha “Krotalariyaning ekish muddatlariga bog'liq holda maqbul sug'orish tartibini ishlab chiqish(Zarafshon vohasining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 3-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUEAITI ko'chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Yusupaliyev Orzumurod Odilovichning 09.00.06 – G'oyalar tarixi va metodologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Yoshlar mafkuraviy ongi transformatsiyalashuvda urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar o'rni” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: info@nuu.uz

Normatova Nodira Suyundikovnaning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “Global ekologik inqirozning ijtimoiy-falsafiy tahlili(zamonaviy nemis ekofalsafasi asosida)” (Социально-философский анализ глобального экологического кризиса(на основе современной немецкой экофилософии)) mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 3-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: info@nuu.uz

Komilova Dildora Shavkatovnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha “Ingliz va o'zbek adabiyotida nutq odobi talqini” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-sentabr kuni soat 9:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Tel/faks: (65) 221-29-14; e-mail: bxu@gmail.com

Ulashova Ozoda Yusup qizining 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha “G'ozani tomchilatib sug'orishda begona o'tlarga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 4-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUEAITI ko'chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Ibraximova Diloromxon Saloydinovnaning 09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi(etika) ixtisosligi bo'yicha “O'zbekistonda yuridik etika rivojlanish tendensiyalari: falsafiy tahlil” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 3-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: info@nuu.uz

O'zbekiston Respublikasi Davlat attestatsiya komissiyasi qaroriga ko'ra Ergasheva Zebiniso Zafarbekovnaga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi KQT va MOM tomonidan 2018-yil 21-mayda 1296-son bilan qayd etib berilgan QT № 043120 raqamli DIPLOM yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa” kafedrasida professori, falsafa fanlari doktori Niginaxon Shermuxamedovaga onasi

Adolat aya SHERMUXAMEDOVAning

vafot etganligi munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Gazetamizning navbatdagi soni 3-sentabr, payshanba kuni chiqadi.



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

REKTORATI, PROFESSOR-O'QITUVCHILARI VA TALABALARI JAMOASI



Barcha yurtdoshlarimiz, mamlakatimiz ta'lim va fan tizimida mehnat qilayotgan ustoz va murabbiylarni

**eng ulug', eng aziz ayyom –
jonajon O'zbekistonimiz davlat mustaqilligining
35 yilligi munosabati bilan muborakbod etadi!**

**Vatanimiz ravnaqi, farovon turmushimizni yanada yuksaltirish,
ilm-fanni yangi-yangi kashfiyotlar bilan boyitish
yo'lidagi olijanob faoliyatingizda muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!**



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V- 6181. Tiraji-6200.
Hajmi: 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi: A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib bosish
tahririyat ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:



Ⓣ – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy ko'chasi, 30-uy.